

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.09.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

SOBIROV ANVAR KUVANDIKOVICH

O‘ZBEK TILIDA SO‘Z TARTIBINING LINGVOPOETIK TAHLILI

10.00.01 – O‘zbek tili

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

**Filologiya fanlari doktori (DSc)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)
по наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (DSc)
on sciences**

Sobirov Anvar Kuvandikovich

O‘zbek tilida so‘z tartibining lingvopoetik tahlili3

Собиров Анвар Кувандыкович

Лингвопоэтический анализ порядка слов в узбекском языке.....33

Sobirov Anvar Kuvandikovich

Linguopoetic analysis of word order in the Uzbek language.....55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 60

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.09.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

SOBIROV ANVAR KUVANDIKOVICH

O‘ZBEK TILIDA SO‘Z TARTIBINING LINGVOPOETIK TAHLILI

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi byulletenida B2022.4.DSc/Fil472 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) hamda “Ziyonet” axborot ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Mirzayev Ibodulla Kamolovich

filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mamatov Abdug‘ofur Eshonqulovich,

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Tojiyeva Gulbahor Nomozovna

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Xamidov Abdumalik Kironovich,

filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.09.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil “____” _____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Bo‘stonsaroy ko‘chasi, 93. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, 2 – ARM binosi, 3-qavat Faollar zali. Tel.: (8366) 239-18-92; faks: (0366) 99366 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (87-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____” _____kuni tarqatildi.
(2026-yil “____” _____dagi _____-raqamli reestr bayonnomasi).

J.D.Eltazarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

D.D.Marupova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

X.Z.Xayrullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlarini aniqlash, unda til birliklarining estetik-funksional imkoniyatlarini ochib berish, muallif individual uslubining lingvistik mexanizmlarini yoritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, so'z tartibi nafaqat grammatik-sintaktik munosabatlarni shakllantiruvchi vosita, balki badiiy nutqning mazmuniy, ekspressiv, emotsional va estetik ta'sirchanligini ta'minlovchi muhim lingvopoetik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, poetik va nasriy matnlarda odatiy sintaktik tartibning o'zgarishi, inversiya, aktual bo'linish, tema-rematik munosabatlar hamda sintaktik urg'uning qo'llanishi muallifning kommunikativ-estetik maqsadini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, badiiy matn lingvistikasi, lingvopoetika, funksional stilistika, pragmalingvistika, qiyosiy tilshunoslik va raqamli filologiya yo'nalishlarini takomillashtirish va ularni zamonaviy tilshunoslik yutuqlari asosida izohlash bugungi tilshunoslik oldida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida til birliklarining kommunikativ, kognitiv, pragmatik va estetik imkoniyatlarini kompleks o'rganish, xususan, so'z tartibining grammatik, semantik, kommunikativ-pragmatik hamda lingvopoetik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Badiiy matnning mazmuniy-estetik yaxlitligini ta'minlashda sintaktik birliklarning o'zaro joylashuvi, odatiy va o'zgargan so'z tartibi, inversiya, sintaktik urg'u, aktual bo'linish hamda tema-rematik munosabatlarning o'ziga xos funksiyalarini aniqlash lingvopoetikaning muhim ilmiy muammolaridan hisoblanadi. Shu jihatdan so'zlarning gap tarkibidagi joylashuvini kontekst, semantika, prosodika, kommunikativ vazifa va estetik ta'sir bilan uzviy bog'liq holda o'rganish zarurati kuchaymoqda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda tilshunoslik sohasidagi til birliklarini lingvopoetik o'rganishda jiddiy yutuqlarga erishilmoqda. Shu bilan birga, o'zbek tilshunosligida milliy til tabiatini til egasining tafakkuri va kommunikativ maqsadi bilan bog'liq holda tekshirish muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini yanada yuksaltirish, uning ilm-fan va ta'lim tili sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish, tilning ichki imkoniyatlarini zamonaviy lingvistik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida davlat tilini ta'lim tashkilotlarida o'qitishni takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish, tilning sofligi va boyligini ta'minlash hamda nutq madaniyatini yuksaltirish"¹ ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur vazifalar o'zbek tilining grammatik, semantik, stilistik, pragmatik va lingvopoetik imkoniyatlarini chuqur o'rganish, ayniqsa, badiiy nutqda til birliklarining estetik vazifalarini ochib berishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan so'z tartibining lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etish o'zbek tilshunosligining sintaksis, matn lingvistikasi, lingvopoetika va funksional stilistika yo'nalishlarini o'zaro

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

integratsiyalash dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2023-yil 25-dekabrdagi PQ-405-son “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Lingvopoetikada tilning stilistik, semantik vositalarning nazariy va amaliy masalalarini tadqiq etishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, London University, Oxford University (Angliya), Northern Arizona University, California State University, Prinseton University, Columbia University, California University, Indiana University (Amerika), Göttingen Universität, Berlin Humboldt Universität, Goethe Universität (Germaniya), Tokio University (Yaponiya), The University of Sorbonne (Fransiya), Universitat de Valencia (Ispaniya), University of Zurich (Shveytsariya), Moskva davlat universiteti, Moskva davlat lingvistika universiteti, Vitebsk davlat universiteti, (Belarus); Xarkov davlat pedagogika universiteti (Ukraina), Boku Davlat universiteti (Ozarbayjon), shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Buxoro davlat universiteti, O‘zFA o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

So‘z tartibini lingvistik jihatdan o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: til birliklarining funksional-stilistik qatlamlanishi, ularning badiiy, publitsistik, so‘zlashuv va rasmiy-idoraviy nutq uslublariidagi qo‘llanish tartibi, emotsional-ekspressiv va baholovchi ma‘nolari, shuningdek, pragmatik vazifalari atroflicha ochib berilgan (California University, Indiana University, AQSh); so‘z tartibining universal hodisa va diskurs jarayonining harakatlantiruvchi kuchi ekanligi, suhbatdoshlar orasida muloqotni ta‘minlashda istalgan til birligini almashtira oluvchi natija ekanligi aniqlangan (Cambridge

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi www.google.scholar.com, www.lingvolive.com/ru, www.dictionary.com, www.merriam-webster.com, <http://elibrary.udsu.ru>, www.dissercat.com, <https://cheloveknauka.com>, core.ac.uk, www.prilib.ru, www.science.org, www.healthline.com, www.sciencedaily.com, www.pnas.org, www.scientificamerican.com, www.languageguide.org, www.urbandictionary.com va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

University, Angliya); soʻz tartibining maʼno ifodalashdagi vazifasi, ularning badiiy, publitsistik, soʻzlashuv va rasmiy-idoraviy nutq uslublaridagi qoʻllanish xususiyatlari, emotsional-ekspressiv va baholovchi maʼnolari, shuningdek, pragmatik vazifalari atroflicha ochib berilgan (California University, AQSh); soʻz tartibini lingvopoetik tahlil qilish matnning semantik tuzilishi, kontekstda aktual maʼno kasb etishi, nutq vaziyatiga bogʻliq holda stilistik-pragmatik rang-baranglik namoyon etishi masalalari ochib berilgan (Humboldt Universit t, Berlin Universit t, Goethe Universit t, Germaniya); soʻz tartibining pragmatik imkoniyatlari, kommunikativ niyatni yuzaga chiqarishdagi ahamiyati aniqlangan (Oxford University, London University, Angliya; Tokio University, Yaponiya); turkiy tillarda badiiy tarjima amaliyotida soʻz tartibining oʻzgarishi natijasida yuzaga keladigan pragmatik va estetik farqlarni aniqlash hamda toʻgʻri ekvivalent tanlash boʻyicha ilmiy tavsiyalar berilishi muammolari tahlil qilingan (Istanbul Universitesi, Hacettepe University, Bilkent University, Yildiz Teknik Universitesi, Gaziantep Universitesi, Turkiya), rus va boshqa slavyan tillari materialida soʻz tartibining funksional-stilistik imkoniyatlari, diskurs turlarida qoʻllanishi, badiiy matnda obraz yaratishdagi ahamiyati nazariy va amaliy masalalari ochib berilgan (Rossiya Fanlar akademiyasi, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Qozon federal universiteti, Rossiya); oʻzbek tilshunosligida esa soʻz tartibi, muallif nutqining maʼnosini belgilash, badiiy va publitsistik matnlardagi poetik maʼno yaratish, shuningdek, soʻzlashuv uslubida axborotning mantiqiy izchilligini taʼminlash va nutqning uslubiy-kommunikativ taʼsirchanligini oshirishi masalalari aniqlangan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori instituti).

Dunyoda soʻz tartibini lingvopoetik tahlil qilish, jumladan, quyidagi ustuvor yoʻnalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: soʻz tartibining semantik, kognitiv va lingvopoetik tabiatini aniqlash; ularning funksional-stilistik xususiyatlari hamda kommunikativ-pragmatik imkoniyatlarini turli diskurslarda tadqiq etish; soʻz tartibining ekspressiv, emfatik va inversiv shakllari asosida matnlarni stilistik tahlil qilishning amaliy modeli yaratilib, bu modelini filologik tahlil jarayonida qoʻllash; soʻz tartibi asosida matnning informatsion-pragmatik tuzilishini aniqlash va uning yaxlitlik darajasini baholash boʻyicha amaliy mezonlar, badiiy nutqni avtomatik tahlil qilish tizimlari uchun lingvistik belgi va parametrlar bazasi shakllantirish; kompyuter lingvistikasi va sunʼiy intellekt texnologiyalari asosida soʻz tartibining turlarini yaratish; sintaksisining nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish, shuningdek, meʼyoriy hamda variativ soʻz tartibi modellarini tizimlashtirish.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida soʻz tartibining pragmatik imkoniyatlari, kommunikativ niyatni yuzaga chiqarishdagi ahamiyati yuzasidan Batler Kristofer, Van Valin, Xladki Yozef, Maykl Xollidey, Genri Robins³ kabi olimlar tadqiqot olib borishgan.

³ Butler Christopher S. Structure and Function: A Guide to Three Major Structural-Functional Theories. – Amsterdam: Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2003. – 488 p.; Van Valin Robert D. Jr. An Introduction to Syntax. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 250 p.; Hladk  Josef. Language and Function: To the Memory of Jan Firbas. – Amsterdam: Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2003. – 336 p.; Halliday M.A.K. Learning How to Mean: Explorations in the Development of Language. – London: Edward Arnold, 1975. – 164 p.; Robins R.H. J.R. Firth: A Reconsideration of His Place in Twentieth-Century Linguistics // Allgemeine

Fikr ifodalashda soʻz tartibining muhim vosita ekanligi doimo jahon olimlari eʼtiborida boʻlib kelgan. Jumladan, V.O.Matezius⁴, V.G.Admoni⁵, Y.V.Paducheva⁶, I.I.Kovtunova⁷, V.Z.Panfilov⁸, I.P.Raspopov⁹, O.B.Sirotnina¹⁰, E.N.Muxina¹¹, B.P.Shekasyuk¹², N.A.Tranes¹³, A.M.Polikarpov¹⁴, I.A.Voronovskaya¹⁵, S.V.Kormilisin¹⁶, T.Y.Maxortova¹⁷, D.S.Tikiyev¹⁸, A.M.Niyazov¹⁹, G.V.Sadikova²⁰, R.A.Vafeyev²¹, Asefnejad Ali²² kabi tilshunoslar tilning aktual boʻlinishi, soʻz tartibi, inversiya hodisalarini uzviy aloqadorlikda oʻrganishgan.

Soʻz tartibi gap boʻlaklarining oʻzaro muayyan grammatik qonun-qoidalar asosida maʼlum sintaktik, mazmuniy qiymat bilan bogʻliq holda joylashuvdir. Oʻzbek tilshunosligida ham soʻz tartibi hodisasi XX asr boshlaridan tadqiq etila boshlangan. Xususan, Abdurauf Fitrat “Oʻzbek tili qoidolari toʻgʻrisida bir tajriba: Nahv” asarida aktual boʻlinish, tema va rema kabi masalalarga oʻz munosabatini bildirgani²³ eʼtiborga molik. T.S.Yadixanova²⁴ oʻzbek tilida soʻz tartibi masalasini sodda gaplar misolida oʻrgangan. Mazkur masalaga oʻz davrida hozirjavoblik bilan munosabat bildirgan tilshunoslarimizdan biri A.Gʻulomovdir. U oʻzining “Oʻzbek tilida soʻz tartibi” maqolasida, asosan, nasriy matnda soʻz tartibining vazifalari,

Sprachwissenschaft, Sprachtypologie und Textlinguistik. Festschrift für Peter Hartmann. – Tübingen: Gunter Narr Verlag, 1983. – P. 259–267.

⁴ Матезиус В. О так называемом актуальном членении предложения // Пражский лингвистический кружок: сб. статей. – Москва: Прогресс, 1967. – 497 с.

⁵ Адмони В.Г. Синтаксис современного немецкого языка. – Ленинград: Издательство Наука, 1973. – 347 с.

⁶ Падучева Е. В. Коммуникативная расчлененность и пути ее преодоления: инверсия подлежащего // Фонетика и нефонетика. – Москва: Языки славянских культур, 2008. – С. 417-426.

⁷ Ковтунова И.И. Современный русский язык. Порядок слов и актуальное членение предложения. – Москва: Едиториал УРСС, 1976. – 74 с.

⁸ Панфилов В.З. Грамматика и логика. – Москва: Издательство Академии наук СССР, 1963. – 137 с.

⁹ Распов И.П. Актуальное членение предложения (На материале простого повествования преимущественно в монологической речи). – Уфа: Наука, 1961. – 48 с.

¹⁰ Сиротинина О.Б. Лекции по синтаксису русского языка. – Москва: Высшая школа, 1980. – 126 с.

¹¹ Мухина Е.Н. Порядок слов в простом предложении в эрзянском и финском языках: дис. ... канд. филол. наук. – Саранск, 2008. – 156 с.

¹² Шекасюк Б.П. Порядок слов простого предложения немецкой разговорной речи: дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1984. – 208 с.

¹³ Таранец Н.А. Порядок слов в простом и сложном предложении: лингвопрагматический аспект (на материале немецкого и русского языков): дисс. ... канд. филол. наук. – Россия, 2000. – 226 с.

¹⁴ Поликарпов А.М. Сложное предложение в синтаксисе немецкой разговорной речи: дисс. ... д-ра филол. наук. – Россия, 2001. – 209 с.

¹⁵ Вороновская И.А. Порядок слов как средство стилизации в современной художественной литературе: дисс. ... канд. филол. наук. – Саратов, Россия, 2013. – 207 с.

¹⁶ Кормилицин С.В. Порядок слов и актуальное членение предложения: исследование на материале венгерского языка: дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, Россия, 2000. – 221 с.

¹⁷ Махортова Т.Ю. Порядок слов в современном немецком языке: логико-семантический и синтаксический аспекты: дисс. ... канд. филол. наук. – Россия, 2007.

¹⁸ Тикеев Д.С. Исследования по синтаксису простого предложения современного башкирского языка: дисс. ... д-ра филол. наук. – Уфа, Россия, 1999. – 396 с.

¹⁹ Ниязов А.М. Порядок слов в русском и таджикском языках: сопоставительный аспект: дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2012. – 164 с.

²⁰ Садыкова Г.В. Порядок слов: функциональный аспект (на материале текстов электронных газет на русском и английском языках): дисс. ... канд. филол. наук. – Россия, 2005. – 189 с.

²¹ Вафеев Р.А. Порядок слов как средство выражения материальной, актуальной и стилистической информации в русском и киргизском языках: дисс. ... канд. филол. наук. – Россия, 1983. – 176 с.

²² Асефнежад Али. Влияние порядка слов на восприятие содержания высказывания: дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2013. – 166 с.

²³ Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 155 б.

²⁴ Ядыханова Т.С. Порядок слов в простом предложении в узбекском языке: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1964. – 48 с.

struktural-grammatik ko‘rinishlari, aniqrog‘i, ega va kesim tartibi, aniqlovchi va aniqlanmish tartibi, hol va kesim tartibi, to‘ldiruvchi va kesim tartibiga alohida e‘tibor qaratgan²⁵. K.Hayitmetovning tadqiqotida esa so‘z tartibi gapning aktual bo‘linishini ifodalovchi asosiy vositalardan biri sifatida o‘rganilgan²⁶.

O‘zbek tilshunoslaridan Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Nurmonov, R.Sayfullayeva, M.Irisqulov, A.Borovkov, N.Mahmudov, B.O‘rinboyev, B.Menglijev, I.K.Mirzayevlar²⁷ning tadqiqotlarida ham so‘z tartibi masalasi sintaktik, stilistik hodisalar qatorida tahlil qilingan. Professor I.K.Mirzayev O‘zbekistonda birinchi bo‘lib, she‘riyatda so‘z tartibi masalasini lingvistik nuqtayi nazardan chuqur o‘rgandi va bu bilan she‘riy so‘z tartib nazariyasiga asos soldi.

Biroq o‘zbek tilida so‘z tartibining lingvopoetik tahlili uning leksik va sintaktik vositalar yordamida ifodalanishi bilan bir qatorda, poetik sintaksis masalalari: she‘riy, nasriy, dramatik turlarda, og‘zaki so‘zlashuv va publitsistik uslubga xos matnlarda so‘z tartibi imkoniyatlarining lisoniy tabiati lingvopoetik aspektda tahlil qilinmagan. Shuningdek, jonli so‘zlashuv nutqida so‘z tartibining qiymati aniqlanmagan. Mazkur tadqiqotda o‘zbek tilida so‘z tartibining lingvopoetik xususiyatlari badiiy matn turlari misolida o‘rganildi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “O‘zbek tili birliklarining funksional-pragmatik va semantik-uslubiy tahlili (sinxron va diaxron aspektda)” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tilida so‘z tartibining lingvopoetik xususiyatini antropotsentrik, funksional-kommunikativ va matn lingvistikasi yondashuvlari asosida sintaktik, semantik, pragmatik, ekspressiv-stilistik va badiiy-estetik jihatdan aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek tilida so‘z tartibining lingvistik xususiyatini sintaktik, semantik, funksional-kommunikativ va lingvopoetik yondashuvlar asosida nazariy jihatdan asoslash, so‘z tartibi, sintaktik variativlik, inversiya, aktual bo‘linish, tema–rema va fokus tushunchalarining o‘zaro munosabatini aniqlashtirish;

o‘zbek tilidagi odatdagi va o‘zgargan so‘z tartibi modellarini tizimlashtirish, ularning shakllanish omillari hamda gapning kommunikativ, semantik va sintaktik tuzilishiga ta‘sirini aniqlash, so‘z tartibining funksional-semantik tasnifini ishlab chiqish;

badiiy matnda so‘z tartibining lingvopoetik imkoniyatlarini aniqlash, inversiya va boshqa sintaktik pozitsion o‘zgarishlarning semantik urg‘u, emotsional-ekspressivlik, obrazlilik, ritm, poetik ta‘sirchanlik va estetik mazmunni shakllantirishdagi funksiyalarini ochib berish;

so‘z tartibining muallif individual uslubi va badiiy matn janrlariga xos xususiyatlarini aniqlash, she‘riy, nasriy va dramatik matnlarda so‘z tartibi

²⁵ Гуломов А. Ўзбек тилида сўз тартиби // Шарқ юлдузи, 1946. № 4-5. – Б. 123-124.

²⁶ Хайитметов К. Ҳозирги замон ўзбек тилида инверсия: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1967. – 49 б.

²⁷ Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: автореф. дисс... докт.филол. наук. – Ташкент, 1992. – 5 с.

modellarining qo'llanishini qiyosiy tahlil qilish hamda ularning milliy-badiiy tafakkurni ifodalashdagi lingvopoetik xususiyatlarini belgilash;

o'zbek tilida so'z tartibining lingvopoetik modelini sintaktik shakl – semantik mazmun – kommunikativ-pragmatik vazifa – ekspressivlik – poetik obrazlilik – estetik ta'sir – individual uslub munosabatlarini tizimlashtirish asosida takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida hozirgi o'zbek tilida so'z tartibining lingvopoetik xususiyatlarini badiiy, ilmiy, rasmiy, publitsistik va so'zlashuv uslubidagi matn turlari asosida tadqiq etish tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek tilida so'z tartibining lingvopoetik tahlili, tasnifi, vazifasi va boshqa yondosh hodisalarga munosabatini o'rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada qiyoslash, zidlash, tasniflash, kontekstual, distributiv, transpozitsion, transformatsion, statistik tahlil va lingvopoetik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek tilida so'z tartibining sintaktik, semantik, funksional-kommunikativ va lingvopoetik xususiyati so'z tartibining grammatik me'yor doirasidagi variativligi bilan uning kommunikativ va poetik funksiyasi o'rtasidagi qonuniy bog'lanishlar, sintaktik o'zgarishlar va inversiyaning aktual bo'linish, tema–rema va fokus kategoriyalari bilan uzviy munosabatiga asoslanib, so'z komponentlarining pozitsion o'zgarishi orqali axborotning kommunikativ taqsimlanishi, semantik urg'uning markazlashuvi asosida aniqlashtirilgan;

o'zbek tilidagi odatdagi va o'zgargan so'z tartibi modellari sintaktik komponentlarning pozitsiyasi, kommunikativ yuklanishi, semantik urg'u va kontekstual shartlanganlik mezonlari asosida tizimlashtirilib, so'z tartibining variativlashuvini yuzaga keltiruvchi grammatik-sintaktik, semantik, kommunikativ-pragmatik va uslubiy omillar so'z komponentlari pozitsiyasining o'zgarishi bilan gapning sintaktik strukturasi, axborot taqsimoti va semantik markazi o'rtasidagi funksional bog'lanishlar ochib berilgan hamda o'zbek tilida so'z tartibining me'yoriy, kommunikativ-pragmatik, semantik-ekspressiv va lingvopoetik turlardan tarkib topuvchi funksional-semantik tasnifi ishlab chiqilgan;

so'z tartibining lingvopoetik funksionalligi “pozitsion o'zgarish → semantik urg'u → kommunikativ aktuallashuv → ekspressivlik → obrazlilik → ritmik tashkil → estetik ta'sir” izchilligida konseptuallashtirilib, inversiya va boshqa sintaktik pozitsion o'zgarishlarning badiiy matnda poetik mazmunni shakllantirish mexanizmi hamda ularning muallif individual uslubini namoyon etishdagi funksional qonuniyatlari ochib berilgan;

so'z tartibining janriy va individual-uslubiy variativligi “janr xususiyati → kommunikativ vazifa → pozitsion tanlov → ekspressivlik → poetik obraz → milliy-badiiy mazmun” tizimi asosida konseptuallashtirilib, she'riy, nasriy va dramatik matnlarda so'z tartibi modellarining o'ziga xos funksional-lingvopoetik ko'rsatkichlari aniqlangan hamda ularning muallif individual poetik uslubi va milliy-badiiy tafakkurni ifodalash mexanizmi asoslangan;

o'zbek tilida so'z tartibining lingvopoetik funksionalligi sintaktik shakldan individual uslubgacha bo'lgan “shakl – mazmun – kommunikativ funksiya – ekspressivlik – obrazlilik – estetik ta'sir” kontinuumi asosida konseptuallashtirilib,

soʻz tartibi variativligining badiiy mazmunni aktuallashtirish, poetik obrazni shakllantirish va individual uslubni namoyon etish mexanizmlari aniqlangan hamda ularni integratsiyalovchi funksional-lingvopoetik model takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oʻzbek badiiy matnlarini lingvopoetik tahlil qilishda soʻz tartibini aniqlovchi asosiy mezonlar tizimini ishlab chiqishga xizmat qilishi isbotlangan;

soʻz tartibining ekspressiv, emfatik va inversiv shakllari asosida matnlarni stilistik tahlil qilishning amaliy modeli yaratilib, bu model filologik tahlil jarayonida qoʻllanishi mumkinligi asoslangan;

oʻzbek tilini oʻqitish jarayonida soʻz tartibining kommunikativ va estetik funksiyalarini tushuntirish uchun metodik asoslar ishlab chiqilishi dalillangan;

badiiy tarjima amaliyotida soʻz tartibining oʻzgarishi natijasida yuzaga keladigan pragmatik va estetik farqlarni aniqlash hamda toʻgʻri ekvivalent tanlash boʻyicha tavsiyalar berish ilmiy asoslangan;

media va publitsistik matnlar tahlilida soʻz tartibi orqali hosil boʻladigan pragmatik taʼsir (ishontirish, urgʻu berish, manipulyatsiya)ni aniqlash imkonini beruvchi analitik yondashuv shakllantirilishi izohlangan;

soʻz tartibi asosida matnning informatsion-pragmatik tuzilishini aniqlash va uning yaxlitlik darajasini baholash boʻyicha amaliy mezonlar ishlab chiqish, badiiy nutqni avtomatik tahlil qilish tizimlari uchun lingvistik belgi va parametrlar bazasini shakllantirish mumkinligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qoʻllanilgan tadqiqot usullari va ilmiy-nazariy maʼlumotlarning aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, keltirilgan tahlil hamda natijalarning asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, oʻzbek tilida soʻz tartibi masalasi toʻlaonli tadqiqot obyekti ekanligini isbotlashda, soʻz tartibi nazariyasini yangi dalil va xulosalar bilan boyitishda, sheʼriy, nasriy, dramatik, soʻzlashuv va publitsistik uslubga doir matnlarda soʻz tartibini oʻrganish ijodkor va mualliflarning soʻz qoʻllashdagi poetik individualligini oson aniqlashda va kelgusi tadqiqotlar uchun nazariy-metodologik asos vazifasini bajarishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, “Oʻzbek tili sintaksisi”, “Oʻzbek tili lingvopoetikasi”, “Oʻzbek tili lingvopragmatikasi”, “Oʻzbek tili stilistikasi”, “Nutq madaniyati”, “Matn tahlili”, “Tahliliy oʻqish” kabi fanlar boʻyicha oʻquv adabiyotlar, oʻquv-uslubiy majmualar tayyorlashga, umumiy oʻrta taʼlim maktablarining “Ona tili” darslarida sintaksis boʻlimini mukammalroq oʻqitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oʻzbek tilida soʻz tartibini lingvopoetik tahlili asosida:

oʻzbek tilida soʻz tartibining sintaktik, semantik, funksional-kommunikativ va lingvopoetik xususiyati soʻz tartibining grammatik meʼyor doirasidagi variativligi bilan uning kommunikativ va poetik funksiyasi oʻrtasidagi qonuniy bogʻlanishlar, sintaktik variativlik va inversiyaning aktual boʻlinish, tema–rema va fokus kategoriyalari bilan uzviy munosabatiga asoslanib, soʻz komponentlarining

pozitsion o'zgarishi orqali axborotning kommunikativ taqsimlanishi, semantik urg'uning markazlashuvi asosida aniqlashtirishga doir xulosalaridan 2021-2023-yillarda Muhammad al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialida bajarilgan "O'zbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua ishlab chiqish" nomli fundamental loyihada foydalanilgan (Muhammad al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining 2023-yil 20-dekabrda 976/0101-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalar asosida o'zbek tili milliy korpusida lisoniy birliklar tabiatini aniqlash, matnlarni tadqiq qilishdagi qarashlari va badiiy matnda so'z tartibi turli badiiy san'atlarni hosil qilish orqali badiiy matnning ta'sirli, obrazli bo'lishini ta'minlashi haqidagi nazariy xulosalaridan foydalanish orqali amalga oshirilishi ochib berilgan;

o'zbek tilidagi me'yoriy va variativ so'z tartibi modellari sintaktik komponentlarning pozitsiyasi, kommunikativ yuklanishi, semantik urg'u va kontekstual shartlanganlik mezonlari asosida tizimlashtirilib, so'z tartibining variativlashuvini yuzaga keltiruvchi grammatik-sintaktik, semantik, kommunikativ-pragmatik va uslubiy omillar so'z komponentlari pozitsiyasining o'zgarishi bilan gapning sintaktik strukturasi, axborot taqsimoti va semantik markazi o'rtasidagi funksional bog'lanishlar ochib berilgan hamda o'zbek tilida so'z tartibining me'yoriy, kommunikativ-pragmatik, semantik-ekspressiv va lingvopoetik turlardan tarkib topuvchi funksional-semantik tasnifidan "Samarqand viloyati teleradiokanali" DM tomonidan 2026-yil 30-aprel kuni "Samarqand MTRK" telekanali orqali efirga uzatilgan "Dolzarb mavzu" ko'rsatuvining navbatdagi son ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Samarqand viloyati teleradiokanalining 2026-yil 3-iyundagi 01-07/203-son ma'lumotnomasi). Natijada ssenariy matnida so'z komponentlarining kommunikativ yuklanishiga muvofiq pozitsion joylashuvini belgilash, semantik urg'uni maqsadli aktuallashtirish, axborotning mantiqiy izchilligini ta'minlash va nutqning uslubiy-kommunikativ ta'sirchanligini oshirish imkonini beruvchi lingvopoetik vositalardan foydalanish samaradorligi ta'minlangan;

so'z tartibining lingvopoetik funktsionalligi "pozitsion variativlik → semantik urg'u → kommunikativ aktuallashtirish → ekspressivlik → obrazlilik → ritmik tashkil → estetik ta'sir" izchilligida konseptuallashtirilib, inversiya va boshqa sintaktik pozitsion o'zgarishlarning badiiy matnda poetik mazmunni shakllantirish mexanizmi hamda ularning muallif individual uslubini namoyon etishdagi funksional qonuniyatlaridan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan II-204-4-5 raqamli "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" nomli innovatsion tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 25-dekabrda 1375/02-son ma'lumotnomasi). Natijada ingliz tilidagi badiiy matnlarni o'qitishga mo'ljallangan virtual ta'lim resurslarida so'z tartibining lingvopoetik xususiyatlarini interaktiv va qiyosiy tahlil qilish imkoniyati kengaytirilib, talabalarning sintaktik konstruksiyalarni kontekstual anglash, semantik urg'u va kommunikativ aktuallashtirishni aniqlash, inversiya va boshqa pozitsion o'zgarishlarning ekspressiv-obrazli hamda estetik funksiyalarini farqlash ko'nikmalari takomillashtirilgan;

soʻz tartibining janriy va individual-uslubiy variativligi “janr xususiyati → kommunikativ vazifa → pozitsion tanlov → ekspressivlik → poetik obraz → milliy-badiiy mazmun” tizimi asosida konseptuallashtirilib, sheʼriy, nasriy va dramatik matnlarda soʻz tartibi modellarining oʻziga xos funksional-lingvopoetik koʻrsatkichlari aniqlangan hamda ularning muallif individual poetik uslubi va milliy-badiiy tafakkurni ifodalash mexanizmining ilmiy asoslanishidan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining TEMPUS dasturining Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL “Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes” loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 25-dekabrdagi 1376/02-son maʼlumotnomasi). Natijada, ingliz va boshqa Yevropa tillarini oʻqitishga moʻljallangan blended learning mazmuni lingvopoetik jihatdan boyitilib, badiiy matnlarning janriy va individual-uslubiy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishga yoʻnaltirilgan oʻquv materiallari takomillashtirildi hamda magistrantlarning xorijiy tildagi badiiy matnlarni semantik, kommunikativ, ekspressiv va lingvopoetik jihatdan tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyati kengaytirilgan;

oʻzbek tilida soʻz tartibining lingvopoetik funktsionalligi sintaktik shakldan individual uslubgacha boʻlgan “shakl – mazmun – kommunikativ funktsiya – ekspressivlik – obrazlilik – estetik taʼsir” kontinuumi asosida konseptuallashtirilib, soʻz tartibi variativligining badiiy mazmunni aktuallashtirish, poetik obrazni shakllantirish va individual uslubni namoyon etish mexanizmlari aniqlangan hamda ularni integratsiyalovchi funksional-lingvopoetik model takomillashtirishga oid takliflardan 2022-yilda bajarilgan Jizzax viloyati “Istiqbol” mintaqaviy markazining 68-11/78-raqamli “Aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda jamoatchilik taʼsirini oshirishning innovatsion yoʻllarini joriy etish” mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Jizzax viloyati “Istiqbol” mintaqaviy markazining 2023-yil 20-noyabrdagi 22-son maʼlumotnomasi). Natijada oʻquv-uslubiy materiallarning lingvistik mazmunini takomillashtirish, badiiy va publitsistik matnlarni mazmuniy-kommunikativ jihatdan tahlil qilish, muhim axborot birliklarini semantik jihatdan aktuallashtirish hamda nutqning ekspressiv va estetik taʼsirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlardan foydalanish imkoniyati kengaytirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, shu jumladan, 6 ta respublika va 2 ta xalqaro konferensiyada muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 20 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, 2 ta monografiya, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 12 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, toʻrt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan tashkil topgan boʻlib, umumiy hajm 245 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi **“So‘z tartibini o‘rganishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan. Bob to‘rt faslga ajratilgan. Birinchi fasl *“So‘z tartibi tushunchasining evolyutsiyasi”*ni o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda so‘z tartibi tushunchasi tilshunoslikda muhim kategoriyalardan biri ekanligi, uning evolyutsiyasi, tilning umumiy rivoji, nutq ehtiyojlari va grammatik tizim o‘zgarishlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ilmiy asoslangan. Evolyutsiya har qanday tizim, hodisa yoki jarayonning vaqt o‘tishi bilan asta-sekin o‘zgarib, rivojlanib borishidir. Tilshunoslikda so‘z tartibi evolyutsiyasi gap ichidagi so‘zlarning joylashish tartibi yillar davomida qanday o‘zgarishlarga uchraganini anglatadi. Ko‘pincha so‘z tartibi quyidagi yo‘nalishda rivojlangan: erkin tartib (qadimgi bosqich), aralash tartib (o‘tish davri), qat’iy tartib (zamonaviy bosqich). Qadimgi turkiy tillarda erkinroq tartib mavjud bo‘lgan. Yusuf Xos Hojibning *“Qutadg‘u bilig”* asari matnidagi so‘z tartibi bunga misol bo‘la oladi: *Boqib ko‘r: kitobni yaratgan kishi, Hunarli er emish, kishilar boshi*. Asar she’riy shaklda yozilgan bo‘lsa-da, erkin so‘z tartibi ustuvor ekanligi ko‘rinib turibdi.

So‘z tartibi evolyutsiyasi tilning tarixiy taraqqiyoti, grammatik qurilishi va kommunikativ ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liq hodisadir. Til taraqqiyoti davomida gap bo‘laklarining joylashuvi oddiy grammatik vosita bo‘lib qolmay, balki ma’no, uslub, pragmatika va axborot berishni ifodalovchi muhim sintaktik omilga aylangan. So‘z tartibi evolyutsiyasining asosiy taraqqiyoti va sabablari tillarning sintetiklikdan analitiklikka o‘tish evolyutsiyasi va tillardagi tipologik o‘zgarishlar bilan bog‘liq. O‘zbek tilida so‘z tartibi evolyutsiyasi erkinlikdan qat’iylikka va soddalikdan murakkablikka qarab rivojlandi. O‘zbek tili nisbatan erkin so‘z tartibiga ega til hisoblanadi, chunki unda kelishik qo‘shimchalari rivojlangan. Tadqiqotda bu jarayon bir necha bosqichda tushuntirilgan: 1. Dastlabki bosqich. 2. Grammatiklashuv bosqichi. 3. Funksional bosqich. 4. Lingvopoetik bosqich. So‘z tartibi evolyutsiyasi quyidagi yo‘nalishda kechadi: erkinlik → tartibga tushish → grammatiklashuv → kommunikativ va stilistik-pragmatik vositaga aylanishdir.

Tilshunoslikda sintetik tillarda qo‘shimchalar va morfologik shakllar kuchli bo‘lgani uchun gap bo‘laklari o‘rni erkinroq bo‘lishi, analitik tizim kuchaygan sari esa so‘zlarning qat’iy joylashuvi zarur bo‘lib qolishi o‘z isbotini topgan. Ingliz tilining tarixiy rivojlanishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi. O‘zbek tilida esa agglyutinativ qurilish sababli so‘z tartibi nisbatan erkin saqlanib qolgan, biroq kommunikativ maqsadga ko‘ra ayrim komponentlarning o‘rni o‘zgarishi mumkin²⁸.

Ushbu faslda an’anaviy va zamonaviy sintaksis taqqoslangan. Struktur

²⁸ Нурмонов А., Махмудов Н., Ахмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 211.

yondashuv gaplarning grammatik tuzilishini, funksional yondashuv esa ularning nutqdagi maqsadi, emotsional ta'siri va axborot berish darajasini o'rganishi ochib berilgan.

Tadqiqotda so'z tartibi evolyutsiyasining yana bir muhim jihati, uning pragmatik va funksional vazifalarining kengayishi ham izohlangan. Zamonaviy tilshunoslikda so'z tartibi faqat grammatik qurilish emas, balki tema-rema munosabatlari, mantiqiy urg'u, emotsional-ekspressivlik va nutq strategiyasini ifodalovchi vosita sifatida ham qaraladi. Ayniqsa, funksional tilshunoslik yo'nalishida gap tarkibidagi birliklarning joylashuvi kommunikativ ehtiyoj bilan izohlanadi. Shuningdek, globallashuv, modern adabiyot, tarjima jarayonlari, ommaviy kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar ham so'z tartibining evolyutsiyasiga ta'sir ko'rsatmoqda. Internet tili, ijtimoiy tarmoqlar va tezkor yozishmalar natijasida ayrim sintaktik me'yorlarning soddalashuvi yoki yangi tartib modellari yuzaga kelmoqda. So'z tartibi evolyutsiyasi tilning tejamkorligi va aniqligi o'rtasidagi oltin muvozanatni saqlash vazifasini ham bajaradi.

Ishda so'z tartibi evolyutsiyasi tilning tarixiy, grammatik va kommunikativ rivojlanishini aks ettiruvchi murakkab jarayon ekanligi, u til tizimining ichki qonuniyatlari bilan birga jamiyat, tafakkur va kommunikatsiya ehtiyojlari ta'sirida shakllangan, so'z tartibini o'rganish til evolyutsiyasini, tipologik farqlarni va zamonaviy kommunikativ jarayonlarni anglashda muhim nazariy asos bo'la oladigan til hodisasi degan xulosaga kelingan.

Bobning ikkinchi fasli "*So'z tartibi grammatik kategoriya yoki diskursiv hodisa sifatida*" deb nomlanadi. So'z tartibi bir vaqtning o'zida ham grammatik, ham diskursiv hodisa hisoblanadi. Tilshunoslikda bu masala uzoq vaqt bahsli bo'lgan. Zamonaviy qarashlarga ko'ra, so'z tartibi faqat grammatik qurilish emas, balki nutqning kommunikativ va pragmatik ehtiyojlari bilan ham bog'liq²⁹. So'z tartibi grammatik hodisa sifatida, ya'ni grammatik nuqtayi nazarda gap bo'laklarining sintaktik joylashuvini bildiradi. U ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqllovchi kabi birliklarning tartibini belgilaydi. O'zbek tilida odatiy qolip: ega + to'ldiruvchi + kesim. Misol: "*Talaba kitobni o'qidi.*" Agar tartib o'zgarsa: "*Kitobni talaba o'qidi*", mazmun saqlansa ham gap urg'usi o'zgaradi. Ba'zi tillarda so'z tartibi grammatik ma'noni bevosita belgilaydi. Ingliz tilida: *Yigit qizni ko'rdi* ("The boy saw the girl"), *Qiz yigitni ko'rdi* ("The girl saw the boy")³⁰. Bu gapda tartib almashishi subyekt va obyektni o'zgartiradi. Shu sababli struktur tilshunoslik so'z tartibini sintaksisning asosiy vositalaridan biri deb qaraydi. Diskursiv yondashuvda so'z tartibi axborotning taqsimlanishi, tema va rema, kommunikativ urg'u, pragmatik maqsad bilan bog'liq holda o'rganiladi. Masalan, "*Talabalar bugun universitetga keldi*" gapida "*universitetga*" so'zi mantiqiy urg'u olgan so'z hisoblanadi. "*Bugun universitetga talabalar keldi*" gapida esa mantiqiy urg'u "*universitet*"ga emas, "*talaba*" so'ziga tushadi. Demak, so'z tartibi nutq vaziyatiga qarab o'zgaradi va axborotning qaysi qismi muhimligini ko'rsatadi.

²⁹ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодаланишининг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987. – 86 б.

³⁰ Jakobson R. Closing Statement: Linguistics and Poetics. – In: Style in Language. – Cambridge: New York, 1960. – P. 177.

Tadqiqotda V.Matezius va Praga lingvistik maktabi vakillari soʻz tartibini aktual boʻlinish bilan bogʻlaganligi, tema – maʼlum axborot, rema – yangi axborot ekanligi keltirib oʻtilgan. Turkiy tillarda, jumladan oʻzbek tilida, grammatik koʻrsatkichlar kuchli boʻlgani uchun soʻz tartibi nisbatan erkin: *Men uni koʻrdim. Uni men koʻrdim*. Kelishik qoʻshimchalari sintaktik munosabatni saqlab turganini koʻrishimiz mumkin. Shu sababli oʻzbek tilida soʻz tartibi koʻproq diskursiv va uslubiy vazifa bajaradi.

Dissertatsiyada oʻzbek tilshunosligida matn lingvistikasi, diskurs tahlili, pragmalingvistika, badiiy matn tahlili, tarjimashunoslik, funksional sintaksis kabilar aktualizatsiya nazariyasi sohalarida muhimligi asoslangan. Ayniqsa, soʻz tartibi va urgʻuning maʼno farqlashdagi roli aktualizatsiya bilan izohlanadi. Aktualizatsiya nazariyasi koʻpincha tema – rema, kommunikativ sintaksis, funksional grammatika, diskurs, pragmatik maʼno, sintagmatik munosabatlar bilan birga oʻrganiladi. Bu nazariya struktur tilshunoslikdagi “*til – sistema*” qarashidan funksional va kommunikativ yondashuvga oʻtish natijasida shakllangan. Struktur tilshunoslikda til birliklari koʻproq statik sistema sifatida oʻrganilgan boʻlsa, aktualizatsiya nazariyasida ular nutqdagi real faoliyati orqali tahlil qilinadi. Shuning uchun bu nazariya kommunikativ sintaksis, pragmalingvistika va matn lingvistikasining muhim asoslaridan biri hisoblanadi.

Bobning uchinchi fasli “*Soʻz tartibi gapda shakl va maʼno munosabatni ifodalovchi vosita sifatida*” deb nomlangan. Soʻz tartibi gap tarkibidagi birliklarning joylashish qonuniyati boʻlib, u nafaqat grammatik vazifani, balki maʼno, urgʻu va kommunikativ niyatni ham belgilaydi. Tilshunoslikda soʻz tartibi sintaktik qurilishning muhim vositalaridan biri sifatida qaraladi. Oʻzbek tilida soʻz tartibi nisbatan erkin boʻlsa-da, odatiy qolipi: *ega + toʻldiruvchi + kesim* shakli koʻp kuzatiladi. Biroq gap boʻlaklarining oʻrni oʻzgarsa, maʼno yoki uslubiy urgʻu ham oʻzgaradi: *Men kitobni oʻqidim* – odatiy xabar. *Kitobni men oʻqidim* – “men” boʻlagiga taʼkid tushadi. *Oʻqidim men kitobni* – badiiy yoki emotsional ohang kuchayadi. Demak, soʻz tartibi faqat grammatik hodisa emas, balki pragmatik va diskursiv vosita hamdir. Gapda qaysi axborot yangi yoki muhim ekanligi koʻpincha soʻzlarning joylashuvi orqali belgilanadi, bu tilshunoslikda “tema-rema” munosabati bilan izohlanadi.

Soʻzlarning tartibi tabiiy til ifodasidagi soʻzlar va iboralarning chiziqli ketma-ketligi, shuningdek, maʼlum bir tilda bunday ketma-ketlikni tavsiflovchi belgilar tizimidir. Koʻpincha jumladagi soʻzlarning tartibi haqida toʻxtalamiz, ammo iboralar va kompozitsion tuzilmalar ichidagi soʻzlarning tartibi ham oʻziga xos xususiyatlarga ega. Grammatik yoki maʼno jihatidan bir-biriga bogʻlangan soʻzlarning zanjir shaklida joylashishi inson nutqining chiziqli tabiatining zaruriy natijasidir. Biroq grammatik tuzilish juda murakkab va chiziqli ketma-ketlik munosabati bilan toʻliq ifodalanishi mumkin emas. Shuning uchun soʻzlarning tartibi grammatik maʼnolarning faqat bir qismini ifodalaydi, boshqalari morfologik shakllar, yordamchi soʻzlar yoki intonatsiya orqali ifodalanadi. Soʻz tartibining qoidalarini oʻzgartirish maʼnoning oʻzgarishiga yoki lingvistik ifodaning buzilishiga va grammatik xatolikka olib keladi.

Turkiy tillarda kesimning gap oxirida kelishi tarixiy-anʼanaviy xususiyat hisoblanadi. Shu sababli kesim pozitsiyasi koʻpincha yakuniy maʼno markazi

sifatida xizmat qiladi, badiiy matnlarda esa muallif estetik ta'sir uchun odatiy tartibni buzishi mumkin. Shuning uchun so'z tartibini faqat grammatik hodisa sifatida emas, balki ma'no yaratish mexanizmi sifatida ham o'rganish muhimdir. So'z tartibi va ma'no tilshunoslikdagi eng muhim sintaktik hodisalardan biridir. Gapdagi birliklarning joylashuvi nafaqat grammatik munosabatni, balki axborotning qanday talqin qilinishini, urg'u va kommunikativ maqsadni ham belgilaydi. O'zbek tilida so'z tartibi o'zgarganda gapning asosiy mazmuni saqlanishi mumkin, biroq mantiqiy urg'u, tema va rema, emotsional bo'yoq, aktual ma'no, uslubiy ta'sir o'zgaradi. Masalan, *Talaba maqolani yozdi*. Lekin badiiy nutqda yoki og'zaki uslubda: *Maqolani talaba yozdi*, *Yozdi talaba maqolani* kabi shakllar ham qo'llanadi. Bu o'zgarishlar ekspressivlik, poetiklik, ritm, kommunikativ maqsad uchun xizmat qiladi.

Struktur tilshunoslik so'z tartibini sintaktik model sifatida ko'rsa, funksional tilshunoslik uni nutqdagi axborot taqsimoti bilan bog'laydi. So'z tartibi tilning oddiy grammatik mexanizmi emas. U axborotni tartiblaydi, mantiqiy urg'uni belgilaydi, emotsional ta'sir yaratadi, nutqning kommunikativ vazifasini amalga oshiradi. Shuning uchun so'z tartibi sintaksis, pragmatika, diskurs va funksional tilshunoslikning kesishgan nuqtasida o'rganiladi.

Bobning to'rtinchi fasli "*So'z tartibi va gapning kommunikativ strukturasi*" deb nomlanadi. So'z tartibi gapdagi birliklarning joylashish ketma-ketligi bo'lsa, kommunikativ struktura gapning axborotni qanday taqsimlashini bildiradi. Bu ikki hodisa bir-biri bilan chambarchas bog'liq, chunki gapdagi bo'laklarning o'zni ko'pincha ma'lumotning muhimlik darajasini belgilaydi. Kommunikativ struktura tilshunoslikda aktual bo'linish, tema-rema munosabati, informatsion struktura nomlari bilan ham yuritiladi³¹.

O'zbek tilida so'z tartibi nisbatan erkin. Shu sababli gap bo'laklarining joylashuvi kommunikativ maqsadga qarab o'zgaradi. Oddiy grammatik tartib *Vohid kitobni oldi*. Bu neytral gap. Fokuslangan tartib *Kitobni Vohid oldi*. Bu gapda "*kitobni*" oldinga chiqib, kommunikativ markazga aylangan. Demak, so'z tartibi qaysi bo'lak muhimligini, qaysi axborot yangi ekanini, nutq egasining maqsadini ko'rsatadi. V.Matezius gapning grammatik qurilishi bilan kommunikativ qurilishini farqlagan. Unga ko'ra grammatik struktura – sintaktik qurilish, kommunikativ struktura – axborotning taqsimlanishi. Kommunikativ struktura funksional grammatika, pragmatika, diskursiv tahlil, matn lingvistikasi uchun muhim tushunchadir. Jan Firbas kommunikativ dinamizm nazariyasini ishlab chiqib, gapdagi har bir birlikning axborot yukini tahlil qilgan³².

So'z tartibi faqat grammatik hodisa emas, u axborotni tartiblaydi, tinglovchi diqqatini boshqaradi, tema va remani ajratadi, fokuslash mexanizmini yuzaga chiqaradi. Shu sababli zamonaviy tilshunoslikda so'z tartibi kommunikativ-pragmatik hodisa sifatida ham talqin qilinadi. Fokuslash tizimi – tildagi axborotning qaysi qismi kommunikativ markazga aylanishini belgilovchi vositalar va mexanizmlar majmuasidir. U nafaqat sintaktik, balki semantika, pragmatika,

³¹ Панфилов В.З., Грамматика и логика. – Москва: Прогресс, 1963. – 137 с.

³² Матезиус В. О так называемом актуальном членении предложения // Пражский лингвистический кружок: сб. статей. – Москва: Прогресс, 1967. – С.297.

intonatsiya, diskurs, psixolingvistika bilan ham bog‘liq hodisadir. Fokuslash tizimining qatlamlari muhim.

1. Grammatik fokuslash. Ma’lum grammatik vositalar yordamida hosil qilinadi. Vositalar: inversiya, ajratilgan konstruksiyalar, yuklamalar, bo‘lakni oldinga chiqarish: *Faqat Hasan keldi*. Bu gapda “*faqat*” chegaralovchi fokus hosil qilgan. 2. Prosodik fokus. U nutq ohangi, pauza va urg‘u orqali yuzaga keladi: *Men kitob oldim*. Bu gapda boshqa narsaga emas, aynan kitobga urg‘u berilgan. Prosodik fokus yozma matnda ko‘pincha kursiv, tire, takror, punktuatsiya orqali ifodalanadi³³. 3. Semantik fokuslash. Ba’zi birliklar tabiatan kontrast yoki ajratish vazifasini bajaradi. *Aynan, faqat, hatto, hech bo‘lmaganda, xususan* yordamchilarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Masalan: *Aynan shu masala muhim*. Bu gapda tanlash va eksklyuzivlik ma’nosi mavjud. 4. Diskursiv fokuslash. Fokus ko‘pincha qarama-qarshilikni yuzaga chiqaradi: *Men emas, u aytdi*. Bunda fokus yangi axborotni emas, zid qo‘yishni ham bildiradi. Shuning uchun zamonaviy pragmatikada oddiy va kontrast fokus farqlanadi.

Tadqiqotda fokuslash tizimi axborot markazini belgilashi, kommunikativ ta’sirni kuchaytirishi, nutqning pragmatik yo‘nalishini boshqarishi, tinglovchi diqqatini tartiblashi izohlangan. Shu sababli u zamonaviy funksional sintaksis, diskurs tahlil va kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning “**So‘z tartibi informatsion-pragmatik tuzilma sifatida**” deb nomlangan ikkinchi bobi to‘rt faslga bo‘linadi. Bobning birinchi fasli “*So‘z tartibi va aktual bo‘linish munosabati*”ga bag‘ishlangan. Tilshunoslikda aktual bo‘linishning so‘z tartibi, mantiqiy urg‘u, yuklamalar, intonatsiya, maxsus sintaktik qurilmalar³⁴ kabi remani ifodalovchi vositalari mavjud. Aktual bo‘linish gapning axborot tuzilishini belgilaydi, tema va remani ajratadi, so‘z tartibini kommunikativ vositaga aylantiradi, fokuslash va pragmatik ta’sirni yuzaga chiqaradi³⁵. Badiiy matnda emfatik konstruksiyalar obrazlilikni, drammatizmni, emotsional ta’sirni kuchaytiradi. Emfatik konstruksiyalar publitsistik uslubda, poetik matnda, dialogik nutqda juda faol ishlatiladi: *Keladi! Albatta keladi!* Bu gapda qat’iy ishonch va hissiy ta’sir mavjud. Tadqiqotda nazariy qarashlar jihatidan zamonaviy talqinda Jan Firbas aktual bo‘linishni “kommunikativ dinamizm” azariyasi orqali rivojlantirganligi³⁶, Sharl Balli emfatik birliklarning hissiy va stilistik vazifalarini o‘rganganligi, Roman Yakobson³⁷ emfatik funksiyani kommunikativ vazifa sifatida talqin qilganligi, Maykl Halliday emfatik qurilmalarni informatsion struktura bilan bog‘laganligi izohlangan. Emfatik konstruksiya gapdagi muhim axborotni kuchli ta’kidlaydi, ekspressiv va hissiy ma’no hosil qiladi, fokus va remani kuchaytiradi, kommunikativ ta’sirchanlikni oshiradi. Shu sababli emfatik konstruksiyalar funksional sintaksis, stilistika va pragmalolingvistikaning muhim tadqiqot obyektlaridan biridir. Aktual bo‘linish – gapning kommunikativ maqsadga ko‘ra axborot qismlariga ajralishidir. Bu nazariya gapning faqat grammatik qurilishini

³³ Падучева Е.В. О семантике синтаксиса. Материалы к трансформационной грамматике русского языка. – Москва: КомКнига, 2007. – С.108.

³⁴ Haliday M.A. An introduction to Functional Grammar. – London: Arnold, 1985. – 387 p.

³⁵ Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. Дарслик. – Тошкент, 2019. – Б.156.

³⁶ Firbas J. Functional Sentence Perspective in Written and Spoken Communication. – Cambridge: Cambridge University Press, 1992. – P. 156.

³⁷ Jakobson R. Closing Statement: Linguistics and Poetics. – In: Style in Language. – Cambridge. 1960. – P. 187.

emas, balki nutqdagi vazifasi va axborot yukini ham tahlil qiladi. Tilshunoslikda aktual bo‘linish kommunikativ sintaksis, funksional grammatika, pragmatika, diskurs tahlili bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu hodisa ko‘pincha tema va rema, berilgan va yangi axborot, informatsion struktura orqali izohlanadi. Aktual bo‘linish nazariyasi XX asr boshlarida V.Matezius tomonidan ishlab chiqilgan³⁸. U gapni ikki nuqtayi nazardan o‘rganishni taklif qilgan: grammatik tuzilish, kommunikativ tuzilish. *Talaba kitob o‘qidi*. Grammatik jihatdan talaba – ega, kitob – to‘ldiruvchi, o‘qidi – kesim. Ammo kommunikativ jihatdan qaysi qism yangi axborot ekanligi muhim bo‘ladi. Tema – suhbatda oldindan ma‘lum bo‘lgan yoki kontekstdan anglashilgan qism. Emfatik konstruksiya gapdagi ma‘lum bir bo‘lakni kuchli ta‘kidlash, ajratish yoki hissiy-ekspressiv ma‘no berish uchun qo‘llanadigan sintaktik qurilmadir.

Aktual bo‘linish va so‘z tartibi tilning kommunikativ tuzilishini belgilovchi muhim sintaktik hodisalardandir. Ayniqsa, o‘zbek tilida so‘zlarning odatiy yoki o‘zgargan tartibda qo‘llanishi ma‘no, urg‘u va ekspressivlikni kuchaytiradi. Shu jihatdan aktual bo‘linish va so‘z tartibi nafaqat grammatik, balki pragmatik hamda lingvopoetik funksiyani ham bajaradi.

Dissertatsiyada aktual bo‘linish va so‘z tartibi nutqning mazmuniy yaxlitligini ta‘minlashi, fikrning ta‘sirchan va maqsadga muvofiq ifodalanishiga xizmat qilishi hamda badiiy diskursning estetik imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim sintaktik vosita hisoblanishi keltirib o‘tilgan.

Bobning ikkinchi fasli “*So‘z tartibining pragmatik niyatni yuzaga chiqarishdagi o‘rni*” deb nomlangan. Tadqiqotda so‘z tartibi va pragmatik niyat zamonaviy tilshunoslikda (ayniqsa, pragmatolingvistika va funksional sintaksisda) bir-biri bilan bevosita bog‘liq hodisalar sifatida o‘rganilishi izohlangan. Bu bog‘liqlik shuni anglatadiki, gapdagi so‘zlarning joylashuvi faqat grammatik emas, balki so‘zlovchining kommunikativ maqsadini ham ifodalaydi. So‘z tartibi – gap tarkibidagi so‘zlarning grammatik va kommunikativ jihatdan joylashish tartibi. Tilshunoslikda u ikki darajada o‘rganiladi: grammatik tartib (subyekt–predikat–obyekt kabi) kommunikativ tartib (tema–rema, fokus) Yozef Grinberg so‘z tartibini tillarni tasniflashda asosiy mezonlardan biri sifatida ko‘rsatgan (SOV, SVO, VSO, S-ega, V-kesim, O-to‘ldiruvchi)³⁹.

Pragmatik niyat deganda so‘zlovchining gap orqali ko‘zlagan maqsadi tushuniladi. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi: xabar berish (informatsiya), ta‘kidlash (emfaza) buyruq/iltimos, yashirin ma‘no (implitsit ma‘no) kontekstga bog‘liq niyat tushuniladi. John Searle pragmatik niyatni nutq akti nazariyasi orqali izohlagan. Har bir gap – bu faqat ma‘lumot emas, balki harakat hamdir. So‘z tartibi ko‘pincha pragmatik maqsadni kodlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. So‘z tartibi o‘zgarsa, pragmatik niyat ham o‘zgarishi mumkin. Misol: 1. Neytral gap: *Gulnora kitobni oldi*. Pragmatik niyat: oddiy axborot berish (informativ niyat). 2.Fokuslash: *Kitobni Gulnora oldi*. Pragmatik niyat: “kitobni kim olgani” muhim (fokus Gulnora ustida) 3.Kontrast: *Gulnora emas, Gulzoda kitobni oldi*. Pragmatik niyat: qarama-

³⁸ Матезиус В. О так называемом актуальном членении предложения // Слово а словесност. – 1939. – Т. 5. – № 4. – С. 171–174.

³⁹ Greenberg J.H. Some Universals of Grammar with Particular Reference to the Order of Meaningful Elements // Universals of Language / ed. by J.H. Greenberg. – Cambridge, Mass.: MIT Press, 1963. – P. 73–113.

qarshilik (kontrastiv niyat). Soʻz tartibi pragmatik niyatni tema-rema strukturasi orqali amalga oshiradi: tema → kontekst (maʼlum axborot), rema → yangi axborot. Vilyam Matezius bu modelni Praga lingvistik maktabida ishlab chiqqan. 1.Fokuslash: *Men aytdim.*” Niyat: aniqlik va taʼkidlash 2.Emfaza (emphasis): *Aynan shu muhim.* Niyat: kuchli urgʻu. 3.Kontrast (contrast): *Men emas, u keldi.* Niyat: qarama-qarshi qoʻyish. 4.Yashirin niyat (implicature): *Eshik ochiq ekan.* Niyat: “yopib qoʻyish kerak” degan yashirin maʼno⁴⁰. H.P.Grays bu hodisani “implicature” tushunchasi orqali tushuntirgan⁴¹. M.Xollidey soʻz tartibini “information structure” bilan bogʻlaydi. Pragmatik niyat diqqat, xotira, axborotni qayta ishlash bilan bogʻliq. Soʻz tartibi va pragmatik niyat bir-birini belgilovchi hodisalar.

Dissertatsiyada nutqiy strategiya orqali soʻzlovchi tinglovchiga taʼsir qilishi, kerakli axborotni yetkazishi, suhbatni boshqarishi, oʻz kommunikativ niyatini amalga oshirishi yoritib berilgan.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli “*Gapda soʻz tartibining sintaktik pozitsiya va semantik dominantlikni belgilashdagi ahamiyati*” deb nomlangan. Sintaktik pozitsiya gap tarkibidagi til birliklarining grammatik va kommunikativ joylashuv oʻrnidir. Har bir soʻz yoki sintaktik birlik gap ichida maʼlum pozitsiyani egallaydi va shu pozitsiya uning grammatik vazifasi, kommunikativ roli, semantik yukini belgilaydi. Sintaktik pozitsiya formal sintaksis, funksional sintaksis, kommunikativ grammatika uchun muhim tushuncha hisoblanadi⁴². Sintaktik pozitsiyaning turlari: 1.Boshlangʻich pozitsiya – gap boshidagi oʻrin. Koʻpincha tema, maʼlum axborot, kommunikativ tayanch shu yerda joylashadi: *Talabalar bugun konferensiyada qatnashdi.* Bu gapda “talabalar” boshlangʻich sintaktik pozitsiyada kelgan. 2.Final pozitsiya – gap oxiridagi oʻrin. Koʻpincha rema, yangi axborot, kommunikativ markaz shu pozitsiyada boʻladi: *Talabalar konferensiyada qatnashdi.* Bu gapda “qatnashdi” final pozitsiyada kelib, kommunikativ tugallik hosil qilgan. 3.Interpozitsiya – gap oʻrtasidagi sintaktik oʻrin. Bu pozitsiya izoh, ajratilgan birlik, kiritma konstruksiya uchun faol ishlatiladi. “*Turgʻun, mening yaqin doʻstim, universitetga kirdi*”. Sintaktik pozitsiya aktual boʻlinish bilan bogʻliq. V.Matezius gapdagi pozitsion joylashuvni tema-rema tizimi bilan bogʻlagan⁴³. Oʻzbek tilida tema odatda bosh pozitsiyada, rema esa final pozitsiyada keladi. Semantik dominantlik gap yoki matndagi maʼlum birlikning asosiy maʼno markaziga aylanishidir. Dominant birlik semantik jihatdan yetakchi boʻladi, boshqa birliklarning maʼnosini boshqaradi, kommunikativ ogʻirlikni oʻzida jamlaydi. Bu hodisa semantika, pragmatika, diskurs tahlil, kognitiv lingvistika doirasida oʻrganiladi.

Oʻzbek tili erkinroq soʻz tartibiga ega boʻlgani sababli pozitsion semantika juda faol namoyon boʻladi. Ayniqsa, ega va toʻldiruvchi oʻrni almashishi, kesimning oldinga chiqishi, remaning aktuallashuvi semantik siljishga olib keladi. Pozitsion semantika matnning axborot strukturasi, diskursiv dominantlik, fokuslash

⁴⁰ Матезиус В. О так называемом актуальном членение предложения // Пражский лингвистический кружок: сб. статей. – Москва: Прогресс, 1967. – С. 248.

⁴¹ Grice H.P. Logic and Conversation // In: Cole P., Morgan J.L. (eds.). Syntax and Semantics, Vol. 3: Speech Acts. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41–58.

⁴² Квятовский А.К. Поэтический словарь. – Москва, 1965. – С.325.

⁴³ Galperin I.R. Stylistics. – 2nd ed., rev. – Moscow: Higher School, 1977. – 209 p.

mexanizmi, kommunikativ strategiya bilan bog‘liq. Publitsistik va badiiy matnlarda muallif o‘quvchi diqqatini kerakli nuqtaga aynan pozitsiya orqali yo‘naltiradi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikda pozitsion semantika insonning axborotni qabul qilish modeli bilan bog‘lanadi. Gap boshidagi birlik tezroq idrok qilinadi, konseptual tayanch vazifasini bajaradi. Gap oxiridagi birlik esa yodida kuchliroq qoladi, kommunikativ yakun hosil qiladi. Pozitsion semantika – til birliklarining gapdagi joylashuvi orqali ma‘no va kommunikativ vazifa hosil qilishini o‘rganuvchi yo‘nalishdir.

Kognitiv tilshunoslikda dominantlik inson diqqati, axborotni qayta ishlash, mental markaz bilan bog‘liq. Dominant birlik tezroq anglanadi, kuchliroq esda qoladi, matn interpretatsiyasini boshqaradi. Roman Yakobson dominantlikni struktur markaz sifatida talqin qilgan. M.Xallidey sintaktik pozitsiyani informatsion struktura bilan bog‘lagan. Van Deyk dominantlikni diskursiv va kognitiv markaz sifatida tushuntirgan. So‘zlovchi ma‘lum birlikni bosh pozitsiyaga, final pozitsiyaga, ajratilgan konstruksiyaga joylashtirib pragmatik maqsadini amalga oshiradi. Masalan: *Ushbu xabarni aytgan Ahmad*. Bu gapda dominant birlik tinglovchi diqqatini boshqaradi. Sintaktik pozitsiya gapdagi birliklarning grammatik va kommunikativ o‘rnini belgilaydi. Semantik dominantlik esa ma‘no markazini, kommunikativ og‘irlikni, pragmatik ta’sirni shakllantiradi.

Gap tarkibidagi birliklarning joylashuvi nafaqat grammatik tartibni, balki mazmuniy va pragmatik ustuvorlikni ham belgilaydi. Sintaktik pozitsiya orqali muallif nutqning qaysi qismini markaziy ma‘no yuklovchi unsur sifatida ajratishni ko‘zlaydi. Ayniqsa, so‘zlarning odatiy yoki inversiyalangan tartibda kelishi matnda semantik dominantlikni yuzaga chiqarib, o‘quvchi diqqatini muhim kommunikativ nuqtaga qaratadi. Tahlillar natijasida aniqlanganki, semantik dominantlik ko‘pincha gap boshida yoki sintaktik jihatdan kuchli pozitsiyada joylashgan birliklar orqali ifodalanadi. Bunday holat badiiy matnda ekspressivlikni kuchaytiradi, emotsional ta’sirchanlikni oshiradi hamda muallifning individual uslubini namoyon etadi.

Tadqiqotda sintaktik pozitsiya va semantik dominantlik o‘zaro uyg‘un holda badiiy nutqning mazmuniy yaxlitligini ta’minlovchi muhim lingvopoetik vositalardan biri hisoblanishi, ular orqali matnda nafaqat axborot uzatilishi, balki estetik ta’sir, psixologik urg‘u va diskursiv dinamika ham shakllantirilishi ta’kidlangan.

Bobning to‘rtinchi fasli “*So‘z tartibi ekspressiv sintaksis birligi sifatida*” deb nomlangan. So‘z tartibi va ekspressiv sintaksis tilshunoslikning funksional hamda pragmatik yo‘nalishlari bilan bog‘liq muhim masalalardan biridir. Ekspressiv sintaksis nutqda hissiylik, ta’sirchanlik, emotsional urg‘u va muallif munosabatini ifodalovchi sintaktik vositalarni o‘rganadi. Bunda so‘z tartibi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Oddiy grammatik tartib ko‘pincha neytral axborotni bildiradi. So‘z tartibi o‘zgarganda esa gapning ekspressiv kuchi ortadi. Bu holatda sintaktik pozitsiya orqali ta’kid, hayrat, qarama-qarshilik, hissiy munosabat, dramatizm yuzaga keladi. Ekspressiv sintaksisda so‘z tartibi quyidagi vazifalarni bajaradi: 1. Ta’kid funksiyasi – muhim unsur odatiy joyidan siljiriladi: *Bu ishni u qildi. U qildi bu ishni*. Ikkinchi gapda emotsional urg‘u kuchliroq. 2. Emotsional-ekspressivlik – badiiy matnda hissiy ta’sir hosil qiladi: *Ketdi u... qaytmadi*. Bu gapda pauza va tartib hissiy fon yaratmoqda. 3. Kontrastivlik – bir unsur boshqasiga qarshi qo‘yiladi:

Boshqalar emas, SEN tushunding. 4. Poetika va uslubiylilik – she’riy nutqda inversiya keng qo’llanadi: *Keldi bahor yana.* Bu shakl poetik ritm va estetik ohangni kuchaytiradi. Ekspressiv sintaksis bilan bog’liq tushunchalarga inversiya – odatiy tartibning buzilishi, kommunikativ urg’u – informatsion markazning ajratilishi, aktual bo’linish tema va rema munosabati kabilarni kiritish mumkin. Ekspressiv sintaksis gap qurilishidagi sintaktik vositalarning hissiy-ta’sirchan imkoniyatlarini tahlil qiladi⁴⁴. Bu jarayonda so’z tartibi oddiy grammatik mexanizm emas, balki nutqiy ta’sir vositasi sifatida namoyon bo’ladi. An’anaviy sintaksis so’z tartibini grammatik bog’lanish bilan izohlasa, zamonaviy funksional yondashuv uni kommunikativ strategiya deb baholaydi.

Ekspressiv sintaksisning asosiy mexanizmlari: 1. Inversiya va sintaktik deformatsiya – ekspressiv nutqda gapning tabiiy modeli buziladi. Bu hodisa “sintaktik deformatsiya” deb ham yuritiladi. Inversiya tinglovchi diqqatini ma’lum sintaktik markazga yo’naltiradi. Masalan: *Keldi bahor. Bahor keldi.* Birinchi shaklda poetik dramatizm mavjud. 2. Emfatik pozitsiyada gap boshidagi yoki kesim oldidagi birliklar kuchli emotsional yuklama oladi. Turkiy tillarda, ayniqsa, kesim oldi pozitsiyasi kommunikativ markaz hisoblanadi. Masalan: *Men emas, u aytdi. U aytdi buni.* Bu gapda sintaktik siljish orqali ekspressiv urg’u yuzaga chiqmoqda. 3. Segmentatsiya – ekspressiv sintaksisda gap bo’laklarga ajratiladi: *U... bugun ham kelmadi.* Pauza va uzilish psixologik holatni ifodalaydi. 4. Parsellyatsiya – bu bir sintaktik birlikning bo’linib berilishi: *U keldi. Juda kech.* Parsellyatsiya dramatik effekt va emotsional intensivlikni oshiradi⁴⁵. Gap boshidagi unsur ko’pincha “kognitiv fokus” vazifasini bajaradi. Shu sababli badiiy matnlarda muallif sintaktik joylashuv orqali o’quvchi hissiyotini boshqaradi. Ekspressiv sintaksis alohida gap doirasida emas, balki diskurs jarayonida faol ishlaydi. Oldingi kontekstga zid yoki kuchaytiruvchi element odatda noodatiy pozitsiyaga chiqadi: *Keladi dedim. Kelmadi u.* Bu shaklda yakuniy pozitsiya emotsional kontrast yaratmoqda.

Dissertatsiyada tahlillar shuni ko’rsatadiki, gapdagi birliklarning joylashuvi faqat grammatik tartibni emas, balki nutqning emotsional-ekspressiv ta’sirini ham belgilaydi. So’z tartibidagi o’zgarishlar, ayniqsa inversiya, takror, parallel konstruksiyalar va sintaktik siljishlar badiiy matnda obrazlilikni kuchaytirib, muallifning kommunikativ niyatini yorqin ifodalashga, ekspressiv sintaksis vositalari orqali matnda psixologik urg’u, hissiy kechinma va stilistik intensivlik yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan so’z tartibi badiiy matnda faqat sintaktik hodisa emas, balki pragmatik va lingvopoetik vosita sifatida ham namoyon bo’ladi.

Tadqiqotning uchinchi bobi “**So’z tartibi – lingvopoetik semiozis sifatida**” deb nomlangan bo’lib, u uch fasldan iborat. Bobning birinchi fasli “*So’z tartibining lingvopoetik ma’no yaratilishidagi imkoniyatlari*”ga bag’ishlangan. So’z tartibi badiiy matnda faqat grammatik vosita emas, balki lingvopoetik ma’no yaratishning muhim usullaridan biridir. Ayniqsa, she’riyat va nasrda gap bo’laklarining odatiy joylashuvdan chetga chiqishi matnga emotsional-ekspressiv ta’sir, obrazlilik va

⁴⁴ Leech G. *Language in Literature.* – London: Longman, 2008. – 12 p.

⁴⁵ O’ralova Ch.B., Boymatov S.Ch.. Zamonaviy tilshunoslikda lingvopoetika tadqiqi // *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences.* – 2021. – B. 8.

estetik ohang beradi. Tilshunoslikda bu hodisa lingvopoetik vosita sifatida talqin qilinadi. O'zbek tilida so'z tartibi nisbatan erkin bo'lgani sababli muallif ma'lum bo'lakni oldinga chiqarish yoki orqaga surish bilan o'quvchi diqqatini aynan shu birlikka qaratadi. Masalan: *Keldi ochilur chog'ing, o'zliging namoyon qil, Parchalab kishanlarni, har tomon parishon qil (Hamza)*. Ushbu misralarda shoir "keldi" va "parchalab" so'zlariga kuchli emotsional urg'u yuklaydi. Lingvopoetik tadqiqotlarda bu holat "shakl va mazmun birligi" tamoyili asosida izohlanadi. So'z tartibi orqali poetik ma'no yaratishda aktual bo'linish – tema va rema munosabati ham muhim ahamiyatga ega.

She'riy san'atlarning aksariyati so'z tartibi ishtiroki va ishtirokisiz she'riy misralarda namoyon bo'laveradi, ammo shunday turlar borki, ular inversiya sodir bo'lmasa, so'z tartibiga e'tibor qilinmasa, o'z vazifasini to'laqonli bajara olmaydi, mavjud bo'lmaydi. So'z tartibiga bevosita bog'liq bo'lgan badiiy tasvir vositalari: takror (barcha turlari), tard-u aks san'ati, anafora, epifora, parallellik, tarse', saj'; so'z tartibiga bilvosita bog'liq bo'lgan badiiy tasvir vositalari: tashbeh, tazod, jonlantirish, sifatlash, tajohil ul-orif, oksimoron, antifraz, sarkazm, tajnis, talmeh, tanosib, mulamma' kabilar. Badiiy san'atni aniqlash va uning xususiyatlarini tavsiflashda olimlar qofiya va boshqa unsurlarga e'tibor qilishadi, ammo bu o'rinda so'z tartibining xizmatini tilga olishmaydi. Aslida tarse' she'riy sana'ti aynan so'z tartibi asosida yuzaga chiqadi. Masalan: *Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz, Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz, Har neniki sevmak andin ortiq bo'lmas, Andin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz (Alisher Navoiy)*.

Tilshunoslar poetik sintaksisda so'z tartibining quyidagi funksiyalarini ajratadilar: emotsional-ekspressivlikni kuchaytirish, obrazlilik hosil qilish, ritm va intonatsiyani shakllantirish, mantiqiy urg'uni belgilash, muallifning pragmatik niyatini ifodalash, matnning estetik ta'sirchanligini oshirish. Shuningdek, lingvopoetik ma'no yaratilishida sintaktik deformatsiya, ellipsis va inversiya kabi hodisalar so'z tartibi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Bunday usullar o'quvchini oddiy grammatik qolipdan chiqarib, matnning yashirin ma'nolarini izlashga undaydi.

Ushbu faslda badiiy matnda so'zlarning joylashuvi poetik mazmunni shakllantiruvchi muhim lingvopoetik vositalardan biri ekanligi, so'z tartibining odatiy me'yordan chekinishi matnda yangi semantik qatlamlarni yuzaga chiqarib, obrazlilik va estetik ta'sirchanlikni kuchaytirishi izohlangan. Ayniqsa, inversiya, parallelizm, takror va sintaktik siljish kabi hodisalar poetik ma'noning chuqurlashishiga xizmat qilishi ta'kidlangan. Tahlillar natijasida aniqlandiki, poetik ma'no faqat leksik birliklar orqali emas, balki ularning sintaktik joylashuvi orqali ham hosil bo'ladi.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli "*Inversiya – lingvopoetik vosita sifatida*" deb nomlangan. Mazkur faslda inversiya gap bo'laklarining odatiy sintaktik tartibdan chekinib joylashishi natijasida hosil bo'ladigan stilistik va lingvopoetik hodisa ekanligi, tilshunoslikda u nafaqat grammatik o'zgarish, balki poetik ma'no, emotsional ta'sir va ekspressivlik hosil qiluvchi muhim lingvopoetik mexanizm sifatida talqin qilinishi xususida fikr yuritilgan. Ayniqsa, badiiy matn va she'riyatda inversiya muallifning estetik niyatini ifodalashda faol qo'llanadi. Lingvopoetik mexanizm sifatida inversiya matndagi ma'lum unsurga semantik va emotsional

urg‘u yuklaydi. Masalan, Abdulla Oripovning “Tilla baliqcha” she’rida inversiyaning vazifalarini va pragmatik imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz:

*Tuxumdan chiqdi-yu keltirib **uni**, Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.*

*Tashlandiq ushshoq yeb o‘tadi **kuni**, Xor-u xas, xazonlar ustin yoptilar.*

*Dunyoda ko‘rgani **shu tor hovuzcha** Va **mudroq tollarning achchiq xazoni**.*

*Menga alam qilar, tilla baliqcha Bir ko‘lmak hovuz deb bilar **dunyoni...** (Abdulla Oripov.*

Ushbu misralardagi “uni”, “kuni”, “shu tor hovuzcha”, “mudroq tollarning achchiq xazoni”, “dunyoni” inversiyaga uchragan bo‘laklarining gapdagi pozitsiyasi emotsional dominantlikni va ijodkorning pragmatik imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Gapning odatiy qurilishi buzilganda o‘quvchi diqqati aynan joyi o‘zgargan birlikka qaratiladi. Natijada oddiy axborot poetik va estetik qiymat kasb etadi. Bu hodisa lingvopoetikada “aktualizatsiya” jarayoni bilan ham bog‘liq hisoblanadi⁴⁶. Inversiyaning lingvopoetik xususiyati shundaki, u matndagi semantik energiyani oshiradi. Gap bo‘laklarining o‘zgacha joylashuvi o‘quvchini matnga emotsional jihatdan faolroq jalb qiladi. Shu sababli inversiya poetik sintaksisning eng muhim vositalaridan biri sanaladi.

Badiiy matnda inversiya emotsional-ekspressiv ta’sirni kuchaytiradi, mantiqiy urg‘uni belgilaydi, poetik ritm hosil qiladi, obrazlilikni oshiradi, kommunikativ markazni ajratadi, dramatik va estetik effekt yaratadi. She’riyatda inversiya ko‘pincha ritm va qofiya talabidan ham kelib chiqadi. Misra tarkibidagi so‘zlarning o‘rin almashishi poetik ohangni kuchaytiradi: *Ketar asta tun qora*. Bu misolda fe’lning bosh pozitsiyaga yaqinlashuvi harakat dinamikasini kuchaytirgan va poetik ritm hosil qilgan. Lingvopoetik nuqtayi nazardan inversiya “me’yoriy sintaksisning estetik transformatsiyasi” sifatida baholanadi. Ya’ni grammatik me’yor buzilishi maqsadsiz emas, balki badiiy-estetik niyat asosida amalga oshadi. Shu sababli inversiya stilistik deformatsiya emas, balki poetik qurilish vositasi hisoblanadi. Lingvopoetik nuqtayi nazardan ritmik funksiya matnning musiqiyligini ta’minlash, poetik ohang yaratish, emotsional ta’sirni kuchaytirish, semantik urg‘uni ajratish, estetik uyg‘unlik hosil qilish, o‘quvchi diqqatini boshqarish vazifalarini bajaradi. Ritmik funksiya faqat she’riyatda emas, balki nasrda ham uchraydi. Yozuvchi gap uzunligi, pauza va sintaktik qurilish orqali matnga ichki ritm beradi. Bu holat “prozaik ritm” deb ataladi.

Demak, ritmik funksiya – til birliklarining matnda ohangdorlik, takroriylik va poetik uyg‘unlik hosil qilish vazifasidir. U badiiy matnning estetik qiymatini, emotsional ta’sirchanligini va lingvopoetik intensivligini oshiruvchi muhim hodisa hisoblanadi. Inversiya lingvopoetik mexanizm sifatida matnning oddiy sintaktik tartibini o‘zgartirish orqali nutqqa estetik, emotsional, semantik kuch bag‘ishlaydi

Bobning uchinchi fasli “*So‘z tartibi va sintaktik ritmika munosabati*” deb nomlangan. Sintaktik ritm gap va sintaktik birliklarning ma’lum tartib, takror va intonatsion uyg‘unlik asosida tashkil topishi natijasida yuzaga keladigan poetik-uslubiy hodisadir. U badiiy matn, ayniqsa, she’riyat va poetik nasrda matnning ohangdorligi, musiqiyligi va emotsional ta’sirchanligini ta’minlaydi. Sintaktik ritm

⁴⁶ Jakobson R. Closing Statement: Linguistics and Poetics. – In: Style in Language. – Cambridge. 1960. – 44 p.

lingvopoetika va stilistik sintaksisning muhim tushunchalaridan biri hisoblanadi. Tilshunoslikda ritm faqat fonetik hodisa emas, balki sintaktik qurilish bilan ham bog‘liq deb qaraladi. Gap uzunligi, sintaktik parallelizm, takror, pauza va inversiya kabi vositalar matnning ritmik strukturasini hosil qiladi. Sintaktik ritmning asosiy xususiyati sintaktik birliklarning muayyan ketma-ketlikda takrorlanishidir. Natijada matnning poetik ohangi kuchayadi. Sintaktik ritm ko‘pincha sintaktik parallelizm orqali yuzaga chiqadi. Parallel konstruksiyalar matnning ichki melodiyasini shakllantirib, emotsional ta’sirni oshiradi. Bunday ritm poetik nutqning musiqiylikni ta’minlaydi. Badiiy matnda qisqa va kesik gaplar ham sintaktik ritm hosil qiladi. So‘z tartibining o‘zgarishi intonatsion oqimni boshqaradi. Odatiy sintaktik tartibning buzilishi ritmik harakatni kuchaytiradi va poetik ohang hosil qiladi. Sintaktik ritm emotsional effekt bilan ham chambarchas bog‘liq. Ritmik takror va sintaktik uyg‘unlik o‘quvchi hissiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ritm poetik matnda shakliiy hodisa bo‘lib qolmay, semantik va pragmatik vazifa ham bajaradi.

Lingvopoetikada sintaktik ritm nasriy matnda ham uchraydi. Yozuvchi uzun va qisqa gaplarni almashlab qo‘llash orqali ichki ritm yaratadi. Bu holat “prozaik ritm” deb ataladi. Ayniqsa, nasrda sintaktik ritm matnning dramatik oqimini boshqaradi. Poetik sintaksisda ritm ko‘pincha sintaktik parallelizm, anafora, epifora, takror, ellipsis, inversiya, pauza va intonatsiya kabi vositalar bilan yuzaga keladi. Demak, sintaktik ritm – sintaktik birliklarning muayyan tartib va uyg‘unlik asosida tashkil topishi natijasida matnda poetik ohang hamda estetik ta’sir yuzaga keltiruvchi lingvopoetik hodisadir.

Xulosa qilib aytganda, so‘z tartibi poetik ekspressivlikni hosil qiluvchi asosiy sintaktik omillardan biri hisoblanadi. U matnning obrazlilikini, emotsional ta’sirchanligini va muallif uslubining individualligini namoyon etadi. Natijada sintaktik qurilish va poetik ekspressivlik o‘rtasida uzviy munosabat shakllanib, badiiy diskursning estetik va pragmatik samaradorligi ta’minlanadi.

Tadqiqotning to‘rtinchi bobi **“Badiiy diskursda so‘z tartibining funksional modellari”** deb nomlangan bo‘lib, u to‘rt fasldan iborat. Bobning birinchi fasli *“She’riy matn sintaksisida so‘z tartibi”* deb nomlangan. Tadqiqotda she’riy matn sintaksisidagi so‘z tartibi poetik nutqning asosiy tarkibiy unsurlaridan biri ekani, uning nafaqat grammatik munosabatlarni, balki estetik va emotsional ma’nolarni ham shakllantirishi ilmiy jihatdan asoslangan. Oddiy nutqda so‘z tartibi, asosan, axborotni aniq va tushunarli ifodalash vazifasini bajarsa, she’riy matnda u badiiy ta’sirchanlikni kuchaytiruvchi lingvopoetik vositaga aylanishi ilmiy izohlangan.

O‘zbek tilida so‘z tartibining nisbatan erkinligi shoirga sintaktik qurilishni poetik maqsadga mos ravishda o‘zgartirish imkonini beradi⁴⁷. She’riy sintaksisda so‘zlarning odatiy joylashuvdan chekinishi inversiya hodisasini yuzaga keltiradi. Inversiya orqali muallif ma’lum so‘z yoki obrazni alohida ta’kidlaydi, poetik urg‘uni kuchaytiradi hamda o‘quvchining diqqatini muhim semantik markazga yo‘naltiradi. Masalan, kesim yoki aniqlovchining noodatiy pozitsiyada kelishi matnda hissiy intensivlik va dramatik ohang hosil qiladi. Bu esa she’riy nutqning ekspressivligini

⁴⁷ Тинянов Й.Н. Шеърлий тил муаммоси. – М., 1965. – Б. 209.

oshirib, poetik obrazlarning yanada ta'sirchan chiqishiga xizmat qiladi⁴⁸. Misol uchun:

*Ohista-ohista yog'adi yomg'ir,
Ohista-ohista qo'zg'alar shamol.
Ohista-ohista to'kar yumshoq nur
Bulutlar bag'ridan ko'ringan hilol* (U.Azim, Saylanma, 23-bet).

Eganing kesimdan keyin, ya'ni teskari tartibda joylashishi she'riy matnlar uchun me'yoriy holat sifatida namoyon bo'ladi. Bunday tartibda gap bosh bo'laklarining joylashuvi alohida mantiqiylik yoki ekspressivlikni yuzaga keltirmaydi. Bu o'rinda she'r muallifi gap bo'laklari o'rnini almashtirishda, avvalo, she'r yozish qoidalariga amal qilishi, ritm, qofiya tanlashga e'tibor qaratishi lozimligini yodda tutish lozim. Misol:

*Inson qalbi bilan hazillashmang siz,
Unda ona yashar. Yashaydi Vatan.
Uni jo'n narsa deb o'ylamang hargiz,
Hayhot! Qo'zg'almasin bu qalb daf'atan!* (A.Oripov, Haj daftari, 18-bet.)

She'riy matnlarda lirik qahramon ruhiy kechinmalarini, iztiroblari, qiynalishlari, fikrlashlarini inversiya vositasida ochishda, shubhasiz, asar muallifining dunyoni idrok qilish, his qilishidagi o'ziga xosliklar va voqelikni, inson tushunchasi mohiyatini poetik tasvirlash mahorati yotadi.

Quyidagi misralar ham mutlaq inversiyaga uchragan:

*Ko'zlarimdan toshdi shuurim,
To'lib ketdi bag'rimga navo.
Mangulikday tuyuldi umrim,
Mangulikday tuyuldi dunyo...* (Sh.Rahmon, Abadiyat oralab, 54-bet)

Misralarda, asosan, o'zgargan tartib hukmron. Inversiya va mantiqiy urg'u she'rning ta'sirchanligini oshirmoqda. Fikrimizcha, mantiqiy urg'u inversiyani tashkil etishda faol ishtirok etadi. Muhimi shundaki, she'riyatda so'z tartibining o'zgarishi ta'sirchanlik yoki kommunikativlik vazifasini bajaradi. Gapda so'z tartibini uslubiy jihatdan tadqiq etishda uni gapning ma'noviy tashkil topishini ta'minlovchi vosita sifatida qarash muhim ahamiyatga ega. Gap bo'laklarining odatdagi tartibi ta'sirchanlik kuchiga ega bo'lmay, ko'proq tilning xabar berish funksiyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Inversiya esa she'riy asarlar tilida stilistik bo'yoqdorlikka egaligi bilan ajralib turadi.

She'riy matnda so'z tartibi ritm va intonatsiya bilan ham chambarchas bog'liq. Sintaktik birliklarning joylashuvi misra ritmini belgilaydi, pauza va urg'ular tizimini shakllantiradi. Parallel konstruksiyalar, takrorlar va sintaktik simmetriya poetik ritmikani yuzaga keltirib, matnning musiqiyligini ta'minlaydi. Shu sababli she'riy sintaksisda so'z tartibi faqat grammatik vosita emas, balki ritmik-estetik mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi⁴⁹. Lingvopoetik nuqtayi nazardan qaranganda, she'riy matndagi sintaktik erkinlik badiiy tafakkurning ifodasi hisoblanadi. Shoir so'z

⁴⁸ Собиров А. Шеърятда сўз тартиби (Ҳозирги ўзбек шеърятини мисолида). Филол.фан.б.фалс.док...дисс. – Самарқанд, 2020. – Б. 57.

⁴⁹ Худойберганаева Д. Лингвокультурология терминларининг қичқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – 41 б.

tartibini o'zgartirish orqali yangi semantik qatlamlarni yuzaga chiqaradi, ramziy ma'nolarni kuchaytiradi va individual uslub yaratadi⁵⁰.

Tilshunoslikda she'riy matn sintaksisi masalalari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Roman Jakobson poetik tilning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida sintaktik parallelizm va poetik funksiyani ta'kidlaydi⁵¹. She'riy til xususiyatlarini tadqiq qilar ekan, Y.N.Tinyanov she'riy qator birligi nazariyasi bilan bog'liq holda ko'chimning (enjambement) ba'zi effektlarini tavsiflab berdi. U she'r bilan belgilangan intonatsiya chizig'ining uzilishi, she'riy so'zlar ma'nosining ularning nasriy variantlaridan o'ziga xos (okkazional) tarzda farqlanishiga olib kelishini va ko'chim eskirgan metaforalarni jonlantirish vositasi ekanligini, hatto yordamchi so'zlar ham satrlar chegarasida o'z mavqeyini ko'tarib, mustaqil so'zlar darajasiga yetishini ko'rsatib o'tadi⁵².

So'z tartibi lirik qahramonning ruhiy holatini, hissiy kechinmalarini va individual uslubini ifodalashda ham muhim rol o'ynaydi. Sintaktik qurilishdagi erkinlik o'quvchining diqqatini muhim poetik markazga yo'naltirib, matnning emotsional ta'sirini oshiradi. Shu sababli she'riy matn sintaksisida so'z tartibi lingvopoetik tizimning faol elementi bo'lib, badiiy tafakkur va poetik ifodaning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Bobning ikkinchi fasl "*Nasriy diskursda so'z tartibi*" deb nomlangan. Nasriy diskursda so'z tartibi gap bo'laklarining matn ichida ma'lum kommunikativ, semantik va pragmatik maqsadga muvofiq joylashuvi bo'lib, u nasriy matnda axborotning aniq, izchil va mantiqiy ifodalanishini ta'minlaydi. She'riy matndan farqli ravishda, nasrda so'z tartibi ko'proq normativ (me'yoriy) xarakterga ega, lekin diskurs darajasida u baribir uslubiy va pragmatik vazifa bajaradi⁵³.

Nasriy diskursda so'z tartibi faqat grammatik hodisa emas, balki matn ichidagi axborot oqimini boshqaruvchi vosita hisoblanadi. Nasriy diskursda so'z tartibi asosan me'yoriy sintaktik tizimga tayansa-da, u kommunikativ vazifa bajarib, tema-rematuzilishini shakllantiradi, axborotning mantiqiy oqimini boshqaradi va pragmatik urg'uni belgilaydi. Shu bois so'z tartibi nasriy matnda ham muhim diskursiv vosita sifatida qaraladi. Narrativ dinamika – bu hikoya matnida voqealar, obrazlar va axborotning vaqt, sabab-oqibat va emotsional kuchlanish asosida rivojlanish jarayonidir. U sujetning "harakatlanuvchi mexanizmi" bo'lib, matnning zerikarli statik holatdan chiqib, rivojlanish va o'zgarish (dinamika) kasb etishini ta'minlaydi. Narrativ dinamika voqealar rivojini boshqaradi, sujet tezligi (tempi)ni belgilaydi, konflikt va yechimni shakllantiradi, o'quvchi qiziqishini ushlab turadi, matnda emotsional kuchlanish yaratadi⁵⁴. Masalan: – *Amakingiz bizning havlig'a kelib turadigan vaqtlarida siz yosh bola edingiz, bek, – dedi* [Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" 17-b.]. Mazkur misolda ega va kesim yonma-yon kelmoqda. Odatda, o'zbek tili qoidalariga muvofiq ega gap boshida joylashishi kerak edi.

⁵⁰ Шкловский В.Б. О поэзии и заумном языке // Поэтика: сборники по теории поэтического языка. – Пг.: 18-я Государственная типография, 1919. – С. 13–26.

⁵¹ Тынянов Ю.Н. Проблема стихотворного языка: статьи. – Москва: Советский писатель, 1965. – 199 с.

⁵² Jakobson R. Closing Statement: Linguistics and Poetics. – In: Style in Language. – Cambridge, 1960.

⁵³ Асанов В.Д. Лингвопоэтическая функция смены стиха и прозы в творчестве Шекспира. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Москва, 1988. – 21 с.

⁵⁴ Козеняшева Л.М. Лингвопоэтические средства создания образа слуги в английской литературе XIX—XX вв. – С. ., 2006. – 23 с.

“O‘tkan kunlar” asarida Abdulla Qodiriy so‘z tartibidan samarali foydalangan. Bu yondashuv uning ifoda uslubini bezab turibdi. Masalan, “Bu taraf bilan sizdan o‘pkani biz qilsaq arziydir”. Bu yerda ega o‘z o‘rnini o‘zgartirib ta’kid ma’nosini ifodalab turibdi. – *Shaharlik qizlardi ketidan yuguraverib tomoqqinalari qaqrab ketgandir bolaginamning*”, dedi [Erkin A’zam. “Anoyining jaydari olmasi”]. Muallif o‘quvchiga o‘zbek onalari juda mehribon, farzandlari haqida doim qayg‘urib yuradi yoki onasi o‘g‘liga do‘stidan chakki berib yuboribdi, deb tasvirlab qo‘ysa ham bo‘lardi. Ammo yozuvchi bunday qilmadi. Ko‘rinib turganidek, so‘z tartibini o‘zgartirish asosida jaydari do‘stining tilidan tushunarli, jo‘ngina qilib ifodalab berdi.

Nasriy diskursda so‘z tartibi faqat grammatik qurilish vositasi emas, balki matnning semantik, pragmatik va estetik yaxlitligini ta’minlovchi muhim narrativ mexanizm hisoblanadi. Nasrda komponentlarning joylashuvi muallifning kommunikativ niyati, psixologik urg‘usi hamda voqealar dinamikasini ifodalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, sintaktik pozitsiyaning o‘zgarishi orqali muayyan obraz, harakat yoki hissiy holat semantik dominant darajasiga ko‘tariladi.

Zamonaviy lingvopoetik yondashuvlarda so‘z tartibi diskursiv strategiya sifatida talqin qilinadi. U matnning emotsional-ekspressiv qatlamini kuchaytirib, muallif uslubining individualligini namoyon etadi. Demak, nasriy diskursda so‘z tartibi grammatik me’yor bilangina cheklanmay, badiiy tafakkur, pragmatik maqsad va poetik intensifikatsiyaning murakkab sintaktik tizimini yuzaga chiqaradi.

Bobning uchinchi fasli “*Dramatik diskursda so‘z tartibi*” deb nomlangan. Dramatik diskursda so‘z tartibi dialogik nutqning emotsional, pragmatik va dramatik ta’sirini kuchaytiruvchi muhim sintaktik vosita hisoblanadi. Dramatik matnda so‘zlarning joylashuvi oddiy grammatik me’yorni emas, balki sahnaviy harakat, konflikt va personaj psixologiyasini ifodalashga xizmat qiladi. Shu sababli drama sintaksisi ko‘pincha tabiiy og‘zaki nutqqa yaqinlashadi va ekspressiv deformatsiyalar bilan xarakterlanadi⁵⁵. Drama diskursida so‘z tartibi kommunikativ urg‘uni boshqaradi. Personaj hissiy holatga tushganda yoki konflikt kuchayganda gapning odatiy sintaktik modeli buziladi. Inversiya, ellipsis, sintaktik uzilish va takror kabi vositalar dramatik kuchlanishni oshiradi. Natijada matnda “sahnaviy dinamika” yuzaga keladi. Ayniqsa, tragediya va psixologik dramalarda keskin o‘zgargan sintaktik tartib personajning ichki kechinmalarini ifodalashda faol ishlatiladi⁵⁶. Drama tilining asosiy xususiyati – dialogik nutqdir. Dialogik nutqda so‘z tartibi replika ritmini shakllantiradi. Qisqa va fragmentar gaplar dramatik tempni tezlashtirsa, murakkab sintaktik konstruksiyalar konfliktning psixologik chuqurligini ochadi. Shu bois drama sintaksisi ko‘pincha “harakat sintaksisi” deb ham talqin qilinadi⁵⁷.

O‘zbek tilida gap bo‘laklari tartibi erkin bo‘lishiga qaramay, ko‘pincha qo‘llanadigan – odatdagi bir tartib bor (bunday tartib darak gap asosida belgilanadi). O‘rni bilan bu tartibning o‘zgarishi – inversiya ham uchray turadi. Inversiyaning yuzaga kelish sabablari turli nutqiy vaziyatlar bilan bog‘liq: biror bo‘lakning

⁵⁵ Лотман Й.М. Структура художественного текста. – Москва, 1970. – С. 236.

⁵⁶ Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Тошкент, 1992. – 43 с.

⁵⁷ Baldick C. The Oxford Dictionary of Literary Terms. – Oxford: Oxford University Press, 2015. – 149 p.

mazmun jihatidan birinchi o'rinda ekanligini ko'rsatish, ta'kid, emotsionallikni, ekspressivlikni ifodalash, poetik talab, stilistik xususiyat. Misol uchun: *Xotin! Hoy xotin! Och eshikni! Nima qildim chetga surib* [Erkin A'zam].

Qo'shma gaplar tarkibidagi bosh bo'laklarning aksariyati odatdagi tartib asosida kelgan. Masalan: *Men bir narsa o'yladim, agar boyvachcha ko'nsa* ["Padarkush"]. Ikkala sodda gap tarkibidagi bosh bo'laklar ham ega + kesim tartibida joylashgan. Bu gap ergashgan qo'shma gap hisoblanadi, lekin qo'shma gapning o'zi teskari tartibda joylashgan. Ushbu gap: "Agar boyvachcha ko'nsa, men bir narsa o'yladim", shaklida bo'lishi kerak edi. Lekin dramatik asarning tili odatdagi tartib asosida qurilmaydi, balki ko'proq jonli nutq ko'rinishida bo'ladi. Shuning uchun ham sodda gaplarning hamda gap bo'laklarining turli o'rinlarda kelishini kuzatamiz. Nasriy matnlarda ham bunday hol uchrab turadi: – *Yo 'g'-e, men ularga to'rttagina olma olgan edim, bo'ldi. Quruq bormayin deb* [Erkin A'zam]. Me'yoriy tartibdan ko'ra o'zgargan tartib dramatik asarlarda ko'p qo'llaniladi. Bu asar tilining jonliligini oshiradi hamda asar qahramonlar tilining tushinilishiga yordam beradi.

Lingvopoetik nuqtayi nazardan dramatik diskursda so'z tartibi bir necha funksiyani bajaradi: psixologik urg'u yaratadi, konflikt intensivligini oshiradi, personaj xarakterini ochadi, dialog ritmini boshqaradi, emotsional ekspressivlikni kuchaytiradi, sahnaviy ta'sirchanlikni ta'minlaydi. Masalan, dramatik dialogda ega yoki kesimning odatiy o'rnidan siljishi tinglovchi diqqatini muayyan semantik markazga qaratadi. Bu hodisa "emfatik sintaksis" deb ataladi⁵⁸. Shekspir, M.Behbudiy, E.Vohidov, Said Ahmad dramaturgiyasida sintaktik deformatsiyalar dramatik poetikaning asosiy vositalaridan biri sifatida kuzatiladi. Zamonaviy pragmalingsvistika drama tilidagi so'z tartibini diskursiv strategiya sifatida baholaydi⁵⁹.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, "Padarkush" dramasida bosh bo'laklarning turli o'rinlarda kelishi, ularning me'yoriy va o'zgargan so'z tartibiga amal qilish holatlari ko'p kuzatildi. Barchasi gapning mazmuni hamda personajlarning voqeadagi o'rniga qarab turli tartiblarda qo'llandi. "Padarkush" dramasida ikkinchi darajali bo'laklarning teskari tartibdan ko'ra tog'ri tartibga amal qilishi ko'p kuzatildi. Odatda, ikkinchi darajali bo'laklar kesimga tobelanadi. Lekin Erkin Vohidovning "Oltin devor" komediyasida teskari holatni kuzatdik. Bundan xulosa kelib chiqadiki, tartib turli davrlarda turlicha bo'lgan va eng asosiysi har bir ijodkorning so'z tartibidan foydalanish mahorati ham individuallik kasb etadi.

Dramatik diskursda so'z tartibi oddiy grammatik tartibdan ko'ra kuchliroq stilistik va pragmatik vazifa bajaradi. Dramatik nutqda so'zlarning joylashuvi qahramon ruhiyati, emotsional taranglik, konflikt va kommunikativ bosimni ifodalash vositasiga aylanadi. Shu sababli drama tilida inversiya, to'liqsiz gaplar, takroriy konstruksiyalar hamda sintaktik uzilishlar tez-tez uchraydi. Bunday sintaktik harakatlar dialogning tabiiyligini oshirib, sahnaviy ta'sirchanlikni kuchaytiradi.

⁵⁸ Крушельницкая К.Г. Очерки по сопоставительной грамматике немецкого и русского языков. – Москва: Издательство литературы на иностранных языках, 1961. – 244 с.

⁵⁹ Magregor W.B. Semiotic Grammar. – Oxford: Clarendon Press, 1997. – 347 p.

Dramatik diskursda soʻz tartibi kommunikativ maqsad, emotsional taʼsir va konflikt dinamikasini shakllantiruvchi asosiy lingvopoetik vositalardan biridir. U sahna nutqining ritmi, psixologik intensivligi va badiiy dramatizmini yuzaga chiqarishda muhim funksional ahamiyat kasb etadi.

Bobning toʻrtinchi fasl *“Media-publitsistik diskursda soʻz tartibi”* deb nomlangan. Zamonaviy diskurs, ayniqsa, media va publitsistik diskurs, bugungi lingvistikaning eng faol tadqiq qilinayotgan yoʻnalishlaridan biridir. Diskurs tushunchasi oddiy matndan farqli ravishda til birliklarining ijtimoiy, pragmatik, madaniy va kommunikativ jarayonlar bilan uygʻunlashgan holdagi faol nutqiy tizimini anglatadi. Zamonaviy media makonida diskurs ommaviy kommunikatsiya, siyosiy taʼsir, axborot manipulyatsiyasi va jamoatchilik ongini shakllantirish vositasi sifatida namoyon boʻladi. Media diskurs – bu ommaviy axborot vositalari, internet platformalari, televideniye, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya orqali yuzaga keladigan nutqiy faoliyatdir⁶⁰. Zamonaviy media diskursining asosiy xususiyati multimodallik hisoblanadi, yaʼni axborot faqat matn orqali emas, balki video, audio, emodzi, grafik va vizual belgilar bilan birgalikda uzatiladi. Bu esa kommunikativ taʼsirchanlikni kuchaytiradi. Raqamli media diskursida tilning pragmatik tabiati kuchayadi. Qisqartmalar, heshteglar, internet neologizmlari, memlar va emodzi birliklari yangi kommunikativ kodlarni yaratadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda qisqa, tezkor va emotsional nutq modeli shakllangan⁶¹. Natijada klassik publitsistik uslub bilan raqamli diskurs oʻrtasida sintez yuz beradi. Zamonaviy media diskursida manipulyativ strategiyalar ham muhim oʻrin egallaydi. Mediada til nafaqat axborot uzatadi, balki auditoriyaning fikrini boshqaradi. Sarlavhalardagi dramatizm, konflikt sintaksisi, sensatsion leksika va emotsional urgʻular auditoriya diqqatini jalb qilishga xizmat qiladi. Shu bois media diskurs koʻpincha pragmatolingvistika va psixolingvistika doirasida oʻrganiladi.

Manipulyativ strategiyalar – bu insonlarning xatti-harakatlari, qarorlari va ongiga yashirincha, oʻz manfaatlarini yoʻlida taʼsir oʻtkazish usullaridir.

Kundalik hayot va muloqotda eng koʻp uchraydigan manipulyativ strategiyalar quyidagilardan iborat: emotsional bosim, shubha uygʻotish, qoʻrqitish va tahdid, haddan tashqari maqtov, yolgʻon va faktlarni manipulyatsiya qilish. Masalan: *“Hozir xarid qiling – imkoniyatni qoʻldan boy bermang!”* Bu jumladagi *“hozir”*, *“qoʻldan boy bermang”* kabi birliklar insonda vaqt tanqisligi va yoʻqotish qoʻrquvi hissini uygʻotadi. Natijada isteʼmolchi mahsulot haqida chuqur tahlil qilmasdan qaror qabul qiladi.

Manipulyativ strategiyalar media-publitsistik diskursda adresatning ongiga bevosita buyruq orqali emas, balki til birliklarining pragmatik imkoniyatlari, emotsional baholash, taʼkid va yashirin maʼno qatlamlari orqali taʼsir koʻrsatadi. Bunda soʻz tartibi va sintaktik qurilishning kommunikativ maqsadga yoʻnaltirilganligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy diskursda soʻz tartibi faqat grammatik hodisa emas, balki kommunikativ strategiya va pragmatik taʼsir vositasi sifatida talqin qilinadi. Hozirgi

⁶⁰ Ким М.Н. Новостная журналистика. СПб. 2005. – С.56.

⁶¹ Firbas J. Functional Sentence Perspective in Written and Spoken Communication. – Cambridge: Cambridge University Press, 1992. – P. 220.

media, publitsistika, internet kommunikatsiyasi va ijtimoiy tarmoqlar tilida soʻzlarning joylashuvi axborotning qanday qabul qilinishiga bevosita taʼsir qiladi. Shu sababli zamonaviy diskurs lingvistikasida soʻz tartibi informatsion struktura, aktual boʻlinish va pragmatik urgʻu bilan bogʻliq holda oʻrganiladi. Anʼanaviy sintaksisda soʻz tartibi, asosan, grammatik munosabatlarni ifodalashga xizmat qilgan boʻlsa, zamonaviy diskursda u emotsional taʼsir, auditoriyani boshqarish va kommunikativ dominantlikni yaratish funksiyasini ham bajaradi.

Zamonaviy publitsistik diskursda inversiya keng qoʻllanadi. Bu usul emotsional intensivlikni oshiradi va matnga dramatik effekt beradi. Ijtimoiy tarmoqlar diskursida esa soʻz tartibi yanada erkinlashadi. Twitter, Telegram yoki Instagram postlarida minimal sintaksis, elliptik gaplar, heshtegli konstruksiyalar, emotsional urgʻuli boshlanmalar keng uchraydi⁶². Masalan: *“Shunaqa ham boʻladimi?”*. *“Mana sizga adolat!”* *“Bugun – tarixiy kun”*. Bu gapda sintaktik qisqalik va pozitsion urgʻu auditoriya eʼtiborini tez jalb qilishga xizmat qilgan.

Ijtimoiy tarmoqlardagi media – publitsistik diskursda soʻz tartibi muallifning kommunikativ maqsadiga xizmat qiluvchi lingvopoetik vosita sifatida namoyon boʻladi. Telegram va Facebook matnlarida inversiya, taʼkidlovchi birliklarning oldingi pozitsiyaga chiqarilishi, kesimning aktual markazga qoʻyilishi orqali axborotning emotsional va pragmatik taʼsiri kuchayadi. Shunday qilib, zamonaviy raqamli diskursda soʻz tartibi grammatik meʼyor doirasidan chiqib, matnning gʻoyaviy-estetik tashkil etilishida faol qatnashadi. Misol uchun: *“Oʻzgaradi dunyo, agar oʻzgarsa inson”*. Kesimning bosh pozitsiyaga chiqarilishi (*oʻzgaradi*) harakat va jarayonni kuchaytiradi. Qarama-qarshi parallel qurilish (*dunyo – inson*) matnga badiiylik beradi. Bu yerda publitsistik uslub badiiy ifoda vositalari bilan yaqinlashadi.

Zamonaviy media va publitsistik diskursda soʻz tartibi faqat grammatik meʼyor sifatida emas, balki kuchli kommunikativ va pragmatik vosita sifatida namoyon boʻladi. Axborot oqimining tezligi, auditoriya eʼtiborini jalb qilish zarurati hamda taʼsirchanlik talabi sababli publitsistik matnlarda sintaktik qurilish erkinlashadi va ekspressivlashadi. Natijada inversiya, segmentatsiya, takror, ellipsis hamda aktual boʻlinishga asoslangan tartib modellari keng qoʻllanadi.

Zamonaviy media diskursda soʻz tartibining oʻzgaruvchanligi tilning funksional imkoniyatlarini kengaytirib, matnning ekspressivligi va lingvopoetik qiymatini oshiradi. Shu bois media va publitsistik nutqda soʻz tartibini tadqiq etish nafaqat sintaksis, balki pragmalingsvistika, diskurs tahlili va lingvopoetika nuqtayi nazaridan ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Xulosa

1. Soʻz tartibi tushunchasi evolyutsiyasi tilning faqat grammatik tizimini emas, balki inson tafakkuri, kommunikativ ehtiyoji va ijtimoiy nutq faoliyati bilan uzviy bogʻliq murakkab hodisa ekanligini namoyon etadi. Bu esa soʻz tartibini oʻrganishda koʻp qirrali, funksional va antropotsentrik yondashuvlarning muhimligini tasdiqlaydi. Tadqiqotda, ayniqsa, inversiya, kontrastiv tartib, pozitsion urgʻu va ekspressiv sintaksis kabi hodisalar orqali soʻz tartibi matnning stilistik intensivligini

⁶² Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. – М.: Высшая школа, 1981. – С. 214.

oshirishi aniqlandi. Shu sababli u bugungi kunda sintaksis, semantika, pragmatika va diskursiv tahlilining kesishgan nuqtasida o'rganildi.

